

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

XOLBEKOVA MUNISA SOBIROVNING

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TEONIMLAR

**70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha Magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Muyassar Xolova
filologiya fanlari bo‘yicha faslafa doktori (PhD)

TERMIZ-2024

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2023-yil 2-apreldagi №20-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:

Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ **f.f.f.d. (PhD) Xolova M.**

Kafedra mudiri: _____ **f.f.f.d. (PhD) Amonturdiyev N.**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ **(PhD) Abduraximov D.**

70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi Xolbekova Munisa Sobirovnaning “Alisher Navoiy asarlarida teonimlar” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: Onomastika, antroponimika, teonomika, teonim, teozoonim, teogidronim, teotoponim, Alloh, Xudo, payg‘ambarlar, Nuh, Ya‘qub, Afrotida, sinonim teonim birliklar, antonym, sinonim, omonim.

Tadqiqot obyektlari: Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Nazm ul-javohir” asarlari.

Tadqiqot predmeti – Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Nazm ul-javohir” asarlarida mavjud teonim turlari hamda leksik vositalar.

Ishning maqsadi: teonimlarning uslubiy imkoniyatlarini ochish, lingvistik jihatdan teonimlarning badiiy asarda tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritishdir.

Tadqiqot metodlari: tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, statistik metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- Teonim tadqiqiga doir jahon va o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar ko‘zdan kechirildi va avvalgi tadqiqotlarga asoslangan holda teonim tushunchasiga yangicha qarash shakllantirildi;

- badiiy matndagi teonim, teozoonim, teogidronimlar va shunga o‘xshash teonimik birliklarning estetik, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarni ta‘minlashdagi, shuningdek, o‘zbek tilining lug‘at boyligini oshirishdagi o‘rni ochib berildi;

- teonim va unga yondosh hodisalar o‘rganildi hamda tadqiqot obyekti qilib olingan ikki asarda mavjud bo‘lgan barcha teonimlar yozib olindi, jadvashtirildi va tur-jinsga ajratildi (teonim, teozoonim, teogidronim, teantroponimlar, teoronomlar kabi);

- teonimlarning leksikografik tahlili O‘TIL, O‘TSKIL, NATIL hamda onlayn lug‘at (morfem, sinonim, antonim) vositasida amalga oshirilishi vositasida teonimlarning lug‘atlarda tutgan o‘rniga baho berildi.

- asarning o‘ziga xos uslubini ta‘minlovchi antonim, sinonimik teonimlar

tahlilga tortildi va mazkur hodisalarning matn uslubiga ta'sir doirasi tadqiq etildi va teonimlarning qo'llanilish o'rniga standartdan o'zgalik, darajaviy farqlilik aniqlandi.

Amaliy ahamiyati: Alisher Navoiy asarlaridagi teonimlarni izlab topish, ularni o'z doirasiga muvofiq tur-jinsga ajratish, lug'aviy izohlarini keltirish, leksikografiyadagi o'rnini belgilash o'zbek tilshunosligi uchun juda katta ilmiy ahamiyatga egaki, bu bilan lug'at boyligi kengligi anglashiladi, shuning barobarida, o'z tadqiqini kutib turgan onomastikaning bir yo'nalishi – teonimika xususidagi yangi bilimlar taqdim etiladi va qaysidir ma'noda teonim borasidagi ikkilanishlarga chek qo'yiladi.

Tadbiq etish darajasi: Ishda erishilgan ilmiy va amaliy natijalardan maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida o'rganish, seminar-treninglar, ma'ruza va muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

Qo'llanilish sohasi: O'zbek tilshunosligining leksikologiya, leksikografiya, lingvokulturologiya sohalari hamda o'rta umumta'lim maktablaridan ona tili fanini o'qitishda foydalanish mumkin.

**70230101-Linguistics (Uzbek language) specialization Xolbekova
Munisa Sobirovna master's «Theonyms in the works of Alisher Navoi»**

ANNOTATION

Key words: Onomastics, anthroponymics, theonomics, theonym, theozonym, theohydronym, theotoponym, Allah, prophets, Noah, Jacob, Aphrodite

Research objects: Alisher Navoi's works "Tarihi anbiyo va hukamo" and "Nazm ul-javohir".

The subject of research – is all the linguistic forms of theonyms in Alisher Navoi's works "Tarihi anbiyo wa hukamo" and "Nazm ul-javohir".

The purpose of the work is to reveal the methodological possibilities of theonyms, to clarify the role and significance of theonyms in the artistic work from a linguistic point of view.

Research methods: description, comparison, analysis and classification methods were used.

The results obtained and their novelty:

- Studies in world and Uzbek linguistics dedicated to theonym research were reviewed;

- based on previous studies, a new view of the concept of theonym was formed;

- all theonyms present in the two research works were recorded, tabulated and divided into types (such as theonym, theozonym, theohydronym);

- theonym and other phenomena close to it were studied;

- while studying the speech of the heroes of the work, the types of theonyms that shape the speech were analyzed;

- specific aspects of theonomic units in the work were studied;

- the role of theonyms, theozonyms, theohydronyms and similar theonymic units in the artistic text in providing aesthetic, emotional-expressive opportunities, as well as in increasing the vocabulary of the Uzbek language was revealed;

- the importance of theonyms according to the place of use was determined.

Practical significance: searching for theonyms in the works of Alisher Navoi, classifying them according to their scope, giving their lexical explanations, determining the place of use is of great scientific importance for Uzbek linguistics. It is understood, therefore, at the same time, new knowledge about theonyms, a direction of onomastics that is waiting for its own research, is presented, and in some sense, doubts about theonym are put to an end.

Application level: The scientific and practical results achieved in the work can be used as additional material in the organization of learning, seminars-trainings, lectures and dialogue-conversation classes in schools, academic lyceums, vocational colleges and higher educational institutions.

Field of application: Higher education and secondary education schools.

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. UMUMIY TILSHUNOSLIKDA TEONIMLARNING O‘RGANILISHI

1.1. Din, teonim, til mutanosibligi jahon tilshunosligi nigohida

1.2. O‘zbek tilshunosligida teonim tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy
ishlar sharhi

I bob yuzasidan xulosalar.....

II BOB. TEONIMIKADA MARKAZ VA “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDAGI IFODASI.....

2.1. Teonimda markaz tushunchasi.....

2.2. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida teonimik birliklar tadqiqi

II bob yuzasidan xulosalar.....

III BOB. ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI TEONIMLARGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV

3.1. Navoiy asarlaridagi teonimlarning O‘zbek tili izohli
lug‘atidagi tutgan o‘rni

3.2. Navoiy asarlarida ma’naviy munosabatlar tahlili

III bob yuzasidan xulosalar.....

UMUMIY XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

ILOVALAR.....

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O‘zbekistonda onomastika o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan rivojlana boshlagan sohalardan biri hisoblanib, uning negizidagi teonimlar ya’ni Alloh va ilohiy tushunchalarni bildiruvchi atoqli otlar ayni davrdan o‘rganila boshlandi. Prof. Sh.Maxmaraimova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida onomastik birliklarga keng to‘xtab o‘tib, teonimik hodisani deonimlashuv hodisasi sifatida e’tirof etib, o‘zga tildagi deonimlashuvdan ko‘p holatlarda nom hosil bo‘lishining referentativ asosiga ko‘ra farq qilishini, ya’ni o‘zbek tilidagi deonimlashgan birliklar kishilarning ichki va tashqi xarakter xususiyatini aks ettiruvchi belgilar orqali yuzaga chiqishini va asosan, sifat turkumidagi so‘zlarda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Ammo hosila nominativlarning barchasini ham lisoniy jihatdan turg‘un deonimlar deb hisoblash to‘g‘ri emasligini, o‘zbek tilida mavjud deonimlashgan nominativlar lisoniy qiymatdan ko‘ra ko‘proq nutq vaziyatiga mos okkazional qo‘llanish xususiyatiga ega hamda onomastikaning mustaqil obykti bo‘la olmasligini e’tirof etadi¹. Masalan, Oshiq G‘arib nomining “g‘arib” so‘zida “musofir”, “bechora”, “kimsasiz”, “mushfiq”, “madadga muhtoj” ma’nolari mavjud.

Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafu (s.a.v)ning e’tirof etishlaricha, “Ollohning eng sevimli qullari g‘ariblardir”.

Teonimning semantik ma’nosi yunoncha “teog” – xudo, “onoma” – atoqli ot degani. O‘zbek tilida atoqli otlarning ba’zi tiplari kam tadqiq qilingan sohalardan biri hisoblangan va bu borada R.Nuritdinova², F.Nurmonov³, G.S.Senesarev⁴, Sohib Kamol⁵, N.Uluqov⁶, A.Xolmatov⁷ kabi olimlarning izlanishlari diqqatga sazovordir. Ammo hali bu tadqiqotlar ushbu yo‘nalishning barcha jihatlarini ochib bera

¹ Sh.Maxmaraimova Hozirgi o‘zbek tili. (Leksikologiya) 2-qism. –T.:2021. – B.60.

² Nuritdinova R. O‘zbek teonimlari xususida.// Adabiyot gulshani. 2-qism – Navoiy, 2004. –B 91-93

³ Nurmonov F. Xizr obrazi genezisiga doir ayrim mulohazalar. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2004 – 2-son, -B. 51-54

⁴ Г.С.Снесарев. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии.№2. – Фрунзе, 1980. – С.273-282.

⁵ Sohib Kamol. 505 ism ma’nosi. Ismlar lug’ati. – Qarshi, Nasaf, 2004. –B. 30.

⁶ Uluqov N. O‘zbekcha diniy matnlarda teonimlar. // O‘zbek tilshunosligining va adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. – Andijon, 2001, - B. 44-45

⁷ Xolmatov A. Teonimiya haqida umumiy tushuncha. // O‘zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlar, - Toshkent, 1993. – B. 83-84

olmagan, ya'ni ilmiy-nazariy asoslarini yetarlicha o'z asoslarini topmagan deb ayta olamiz.

G.S.Senesariy islomdan oldingi va islom davridagi ba'zi teonimlar haqida so'z yuritib, "Axuramazda, Axriman, Dev, Pari, Jin, Ajdarho kabi diniy nomlarni izohlagan. Olimning fikricha, bu nomlar O'rta Osiyo va Qozog'iston regionida keng tarqalgan to'rta mifologik obraz: Dev, Pari, Jin, Ajdarhoni – umumiy nomlari personajlarining O'rta Osiyo demonologiyasidagi salbiy qahramonlar nomlarini teonimlar qatoriga kiritish mumkin", deydi⁸.

Tillayeva M.ning "Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi" ("Avesto" onomastikasiga qiyoslash asosida) mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ikkinchi bobining uchinchi bo'limi "Tangri nomlari" deb nomlanadi. Dissertatsiyadagi qadimgi mifologik tasavvurlarga ko'ra, insonga homiylik qiluvchi g'ayrioddiy kuchlar turli xil ko'rinishda namoyon bo'lish xususiyatiga ega deb qaralganligi, shuningdek, Yashtlar turli ilohlarga bitilgan alqovlarda ajdodlarimizning turli tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan tangri nomlari o'ziga xos tizimni tashkil qilishi haqida aytilgan. Tadqiqotchi "Avesto"dagi iloh nomlari, *ko'pincha yerdagi tushunchalar bilan bog'lanishini ta'kidlaydi*⁹.

O'zbek onomastikasi bo'yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarda bir tushunchani ifodalovchi terminlar Olloh, Xudo, Tangri leksemalari Ollohning sifatini bildiruvchi atamalar va ularning o'zbek ismlarida zuhur bo'lishi, islomgacha bo'lgan xudolarning nomlari, afsonaviy maxluqotlar – ajdarho, dev, pari, shayton, jin, ot, bo'ri yoki boshqa mavjudotlar nomlari, payg'ambar, pir va turli ilohiy tushuncha hamda tasavvurlarning nomlari teonimlar tizimiga kirib, o'zbek nomlarining o'ziga xos bir tarmog'ini tashkil etishi xususida so'z yuritiladi¹⁰.

⁸ Г.С.Снесарев. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии. №2. – Фрунзе, 1980. – С.275

⁹ A.Primov, N.O'rozova. O'zbek tili teonimlarini o'rganish masalalariga doir. Samarqand - 2009

¹⁰ Begmatov E., Do'simov, Nafasov T., Qorayev S. O'zbek nomshunosligi: tadqiq yo'nalishi va usullari. Urganch shahrida bo'lib o'tgan nomshunoslikka bag'ishlangan sobiq ittifoq miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar, tezislari// Xiva, 1991, №1. –B.12.

R.Nuritdinova diniy va afsonaviy tushunchalarni ifodalovchi terminlar haqida soʻz yuritir ekan, ismlarning tanlanishi va berilishida geografik obyektlar, turli mavjudotlarning u yoki bu tarzda nomlanishida har xil diniy, ilohiy, afsonaviy, shuningdek, etnografik tushuncha va tasavvurning sezilarli oʻrni borligini taʼkidlaydi. Bir qator onomastik terminlarning boʻlishida qayd qilingan tushuncha va tasavvurlar motivlik rolini oʻynaydi: diniy-afsonaviy tushunchalarni umumiy tarzda ifoda qiluvchi terminlar: teonimlar, teonimiya, teonimik nomlar, afsonaviy nomlar, diniy nomlar, mifik nomlar, diniy-afsonaviy antroponomiya, diniy ismlar, ilohiylashtirilgan nomlar, mifonimlar, xayoliy-faraziy nomlar, oʻzbek teonimiyasi kabi¹¹.

Diniy tushunchalar nomlari (teonimlar): bayat “Tangri, Xudo”, bacaq//bacag “ro‘za”, burxan (xit.) “budda; payg‘ambar, but”, yalabac // yalavac //yalafar “payg‘ambar”, savci “payg‘ambar” va shu kabilar¹². Shu kabi har bir onomastik tadqiqotchi oʻz qarashlarida teonim tushunchasiga bir-bir toʻxtalib oʻtgan, ammo bu nomning toʻliq tadqiq qilinganini anglatmaydi.

Xulosa qilib aytganda, teonim deyilganda faqat Alloh nomlari va ularning sifatlashlari nomi tushunilishi kerak¹³. Qolgan nomlar esa diniy-ilohiy tushunchalar bilan bogʻliq nomlar deb yuritilishi maqsadga muvofiq. Oʻz oʻrnida ular ham paygʻambar nomi, farishta nomi, sahobalar nomi, afsonaviy mavjudotlar nomi, xalifalar nomi kabi va boshqalar. Bu nomlarning diniy-ilohiy nomlar deb berilishida ularning ham dinga oidligi, ham ilohiyotga yaʼni xudoning qudratiga bogʻliq deb tasavvur qilinishi aks etadi deydi A.Primov va N.Oʻrozova oʻz ilmiy izlanishlarida. Juda qadimda din haqida yetarli tushuncha boʻlmaganligi bois ayrimlar uchun “teonim” oddiy tosh, daraxt, bulut, chaqmoqni-da anglata olgan. Ob-havoga topinish ham odatiy hol boʻlgan. Bugun biz tabiat hodisalariga sigʻinmaymiz. Negaki,

¹¹ Nuritdinova R. Oʻzbek teonimlari xususida, // Adabiyot gulshani. 2-qism. Navoiy, 2004. –B. 91-93.

¹² Hamidulla Dadaboyev. Oʻzbek Terminologiyasi: oʻquv qoʻllanma / Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 38-bet.

¹³ A.Primov, N.Oʻrozova. Oʻzbek tili teonimlarini oʻrganish masalalariga doir. Samarqand – 2009

avvalgi va hozirgi diniy qarash bir-biridan tubdan farq qiladi. Bu esa teonimning turli davrda turli o‘rinlarda talqin qilinganligiga borib taqaladi¹⁴.

Navoiy asarlarida antroponimlar o‘rganilgani, tasavvufdagi boshqa mavzular ustida ishlanganini nafaqat o‘zbek tilshunosligi, balki turk tilshunosligida ham ko‘rib chiqdik, ammo Navoiy asarlari teonimiyasi yoki aynan “teonimik birliklari” nomi ostida alohida o‘rganilmaganiga guvoh bo‘ldik. Yana shuni ta’kidlash joizki, B.Bafoev va SH.Yoqubovning kuzatishlari Alisher Navoiy asarlarida ikki mingdan ortiq onomastik birliklar qo‘llanilganligini ko‘rsatadi.

Nazarda tutilgan muammolarga asoslangan holda ushbu yo‘nalish dolzarbligini ko‘rib chiqdik. Ushbu tadqiqotimiz orqali ularga yechim topishga harakat qilamiz.

Tadqiqot obyekti – Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Nazm ul-javohir” asarlari.

Tadqiqot predmeti – Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Nazm ul-javohir” asarlarida mavjud teonimlarning barcha lingvistik shakllari.

Tadqiqotning maqsadi – teonimlarning uslubiy imkoniyatlarini ochish, lingvistik jihatdan teonimlarning badiiy asarda tutgan o‘rni va ahamiyatini yoritishdir. O‘zbek tilshunosligida badiiy asarda uchrovchi teonimlarning xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida bu mavzuga kam qo‘l urilgan. Nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki umumiy tilshunoslikda ham hali hanuz aynan teonimlar alohida yo‘nalish sifatida Navoiy asarlari misolida tadqiq etilmagan. Tasavvuf, antroponimlar, gidronimlar, zoonimlar, toponim va hokazolar o‘rganilgan bo‘lishi mumkin. Ammo bu teonimlarga kelganda mazkur mavzuning dolzarbligi oydinlashdi va biz ushbu mavzuni yoritishni o‘z zimmamizga oldik. Teonimlarni o‘z ichki bo‘linishlarini hisobga olgan holda obyekt sifatida olingan asarlarni sinchiklab o‘rganib, tarkibidagi barcha teonimlar terib olinib, jadval tuzilib, ular o‘ziga mansub kataklarga joylashtirildi. Biz tadqiqotimizda teonimlar bilan bog‘liq

¹⁴ Munisa Xolbekova. Lingvistikada teonimyaning tadqiqi/ Educational Research in Universal Sciences (ERUS) 2023. 373-378 bet.

ikkilanishlarga mustaqil yondashgan holda yechim topishga harakat qildik. Ustiga-ustak din bilan til kesishgan nuqtada tomir otayotgan teonimlarni o'rganish, avvalgi tadqiqotlarga yangilik kiritish zamon talabidir. Bu esa teonimlar tilshunoslikning dolzarb muammolari sirasiga kirib turgan yo'nalishlardan biri o'laroq o'z tadqiqini poylab turgan katta yo'l ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotning maqsadi – A.Navoiy asarlaridagi teonimlarning leksik-semantik, grammatik, morfologik va uslubiy xususiyatlarini ochish, teonimlar yuzasidan ochiq qolgan savollarga ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Asarlarning matni bilan yaqindan tanishish hamda teonimlarni o'rganib chiqish;
- badiiy matndagi teonimlarning qo'llanishdagi o'rni qay darajada ekanligini aniqlash;
- teonimlarning asl mohiyatini ochish vositasida ularni xolonim-meronim munosabatlariga ko'ra tasniflash;
- avvalgi tadqiqotlarga asoslangan holda teonim tushunchasiga yangicha qarash shakllantirish;
- teonim va unga yondosh hodisalar o'rganib chiqish hamda tadqiqot obyekti qilib olingan ikki asarda mavjud bo'lgan barcha teonimlar yozib olish;
- teonimlarning leksikografiyadagi o'rniga baho berish;
- asarning o'ziga xos uslubini ta'minlovchi leksemalarning munosabatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Teonim tadqiqiga doir jahon va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar ko'zdan kechirildi va avvalgi tadqiqotlarga asoslangan holda teonim tushunchasiga yangicha qarash shakllantirildi;
- badiiy matndagi teonim, teozoonim, teogidronimlar va shunga o'xshash teonimik birliklarning estetik, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarni ta'minlashdagi, shuningdek, o'zbek tilining lug'at boyligini oshirishdagi o'rni ochib berildi;
- teonim va unga yondosh hodisalar o'rganildi hamda tadqiqot obyekti qilib

olingan ikki asarda mavjud bo'lgan barcha teonimlar yozib olindi, jadvallashtirildi va tur-jinsga ajratildi (teonim, teofitonim, teoronim, teokosmonim, teozoonim, teogidronim, teantroponimlar, teoronimlar kabi);

- teonimlarning leksikografik tahlili O'TIL, O'TSKIL, NATIL hamda onlayn lug'at (morfem, sinonim, antonim) vositasida amalga oshirilishi vositasida teonimlarning lug'atlarda tutgan o'rniga baho berildi.

- asarning o'ziga xos uslubini ta'minlovchi antonim, sinonimik teonimlar tahlilga tortildi va mazkur hodisalarning matn uslubiga ta'sir doirasi tadqiq etildi va teonimlarning qo'llanilish o'rniga standartdan o'zgalik, darajaviy farqlilik aniqlandi.

- yuqoridagi fikrlar dissertasiya mavzusi dolzarb ekanligini tasdiqlay oladi deb o'ylaymiz.

Tadqiqotning asosiy masalalari: asar matni sinchiklab o'rganilib, mavzu mohiyatini ochib beradigan teonimlar ro'yxati tuzilib, o'z doirasida turlanishini yoritish.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi:

Teonimning semantik ma'nosi yunoncha "teog" – xudo, "onoma" – atoqli ot degani. O'zbek tilida atoqli otlarning ba'zi tiplari kam tadqiq qilingan sohalardan biri hisoblangan va bu borada Nuritdinova R. O'zbek teonimlari xususida.// Adabiyot gulshani. 2-qism – Navoiy, 2004. –B 91-93; Nurmonov F. Xizr obrazi genezisiga doir ayrim mulohazalar. // O'zbek tili va adabiyoti, 2004 – 2-son, -B. 51-54; Г.С.Снесарев. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии.№2. – Фрунзе, 1980. – С.273-282; Sohib Kamol. 505 ism ma'nosi. Ismlar lug'ati. – Qarshi, Nasaf, 2004. –B. 30; Uluqov N. O'zbekcha diniy matnlarda teonimlar. // O'zbek tilshunosligining va adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. – Andijon, 2001, - B. 44-45; Xolmatov A. Teonimiya haqida umumiy tushuncha. // O'zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlar, - Toshkent, 1993. –B. 83-84 kabi olimlarning izlanishlari diqqatga sazovordir. Ammo hali bu tadqiqotlar ushbu yo'nalishning barcha jihatlarini ochib bera olmagan, ya'ni ilmiy-nazariy asoslarini yetarlicha o'z xulosasini topmagan deb

ayta olamiz. G.S.Senesariy islomdan oldingi va islom davridagi ba'zi teonimlar haqida so'z yuritib, "Axuramazda, Axriman, Dev, Pari, Jin, Ajdarho kabi diniy nomlarni izohlagan. Olimning fikricha, bu nomlar O'rta Osiyo va Qozog'iston regionida keng tarqalgan to'rtta mifologik obraz: Dev, Pari, Jin, Ajdarhoni – umumiy nomlari personajlarining O'rta Osiyo demonologiyasidagi salbiy qahramonlar nomlarini teonimlar qatoriga kiritish mumkin", deydi¹⁵.

Tillayeva M.ning "Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi" ("Avesto" onomastikasiga qiyoslash asosida) mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ikkinchi bobining uchinchi bo'limi "Tangri nomlari" deb nomlanadi. Dissertatsiyadagi qadimgi mifologik tasavvurlarga ko'ra, insonga homiylik qiluvchi g'ayrioddiy kuchlar turli xil ko'rinishda namoyon bo'lish xususiyatiga ega deb qaralganligi, shuningdek, Yashtlar turli ilohlarga bitilgan alqovlarda ajdodlarimizning turli tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan tangri nomlari o'ziga xos tizimni tashkil qilishi haqida aytilgan. Tadqiqotchi "Avesto"dagi iloh nomlari, *ko'pincha yerdagi tushunchalar bilan bog'lanishini ta'kidlaydi*¹⁶.

Begmatov E., Do'simov, Nafasov T., Qorayev S. O'zbek nomshunosligi: tadqiq yo'nalishi va usullari deb nomlangan tezislarida o'zbek onomastikasi bo'yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarda bir tushunchani ifodalovchi terminlar Olloh, Xudo, Tangri leksemalari Ollohning sifatini bildiruvchi atamalar va ularning o'zbek ismlarida zuhur bo'lishi, islomgacha bo'lgan xudolarning nomlari, afsonaviy maxluqotlar – *ajdarho, dev, pari, shayton, jin, ot, bo'ri yoki boshqa mavjudotlar nomlari, payg'ambar, pir* va turli ilohiy tushuncha hamda tasavvurlarning nomlari teonimlar tizimiga kirib, o'zbek nomlarining o'ziga xos bir tarmog'ini tashkil etishi xususida so'z yuritiladi¹⁷.

¹⁵ Г.С.Сенсарев. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии. №2. – Фрунзе, 1980. – С.275

¹⁶ A.Primov, N.O'rozova. O'zbek tili teonimlarini o'rganish masalalariga doir. Samarqand - 2009

¹⁷ Begmatov E., Do'simov, Nafasov T., Qorayev S. O'zbek nomshunosligi: tadqiq yo'nalishi va usullari. Urganch shahrida bo'lib o'tgan nomshunoslikka bag'ishlangan sobiq ittifoq miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar, tezislari// Xiva, 1991, №1. –B.12.

Nuritdinova R. O`zbek teonimlari xususida diniy va afsonaviy tushunchalarni ifodalovchi terminlar haqida so`z yuritar ekan, ismlarning tanlanishi va berilishida geografik obyektlar, turli mavjudotlarning u yoki bu tarzda nomlanishi har xil *diniy, ilohiy, afsonaviy*, shuningdek, etnografik tushuncha va tasavvurning sezilarli o`rni borligini ta`kidlaydi. Bir qator onomastik terminlarning bo`lishida qayd qilingan tushuncha va tasavvurlar motivlik rolini o`ynaydi: diniy-afsonaviy tushunchalarni umumiy tarzda ifoda qiluvchi terminlar: teonimlar, teonimiya, teonimik nomlar, afsonaviy nomlar, diniy nomlar, mifik nomlar, diniy-afsonaviy antroponomiya, diniy ismlar, ilohiylashtirilgan nomlar, mifonimlar, xaoliy-faraziy nomlar, o`zbek teonimiyasi kabi¹⁸.

Diniy tushunchalar nomlari (teonimlar): bayat “Tangri, Xudo”, bacaq//bacag “ro`za”, burxan (xit.) “budda; payg`ambar, but”, yalabac // yalavac //yalafar “payg`ambar”, savci “payg`ambar” va shu kabilar¹⁹. Shu kabi har bir onomastik tadqiqotchi o`z qarashlarida teonim tushunchasiga bir-bir to`xtalib o`tgan, ammo bu nomning to`liq tadqiq qilinganini anglatmaydi²⁰.

Sh.Maxmaraimovanning “O`zbek tilida teomorfik metaforalarning qisqacha izohli lug`ati” Toshkent-2017 ushbu adabiyot o`zimga notanish bo`lgan bir qancha teonimlar mohiyatini anglashda yordamchi bo`ldi.

N.Uluqovning “O`zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” nomli avtoreferatida teonimlarga alohida to`xtalib o`tilgan. Diniy matnlarda teonimlar tarjimasiz kelishi va bunday matnlarda teonimlarning o`rni katta ahamiyat kasb etishi haqida o`z ilmiy izlanishlaridan kelib chiqib xulosalar bergan. Ushbu tadqiqot ishi orqali teonimlar xususida yana yangi fikrlar tug`ildi.

Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqot ishida tavsiflash, qiyoslash hamda tasniflash usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotimizning nazariy ahamiyati – teonim hali o`zbek tilshunosligida keng o`rganilmagan

¹⁸ Nuritdinova R. O`zbek teonimlari xususida, // Adabiyot gulshani. 2-qism. Navoiy, 2004. –B. 91-93.

¹⁹ Hamidulla Dadaboyev. O`zbek Terminologiyasi: o`quv qo`llanma / Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 38-bet.

²⁰ Munisa Xolbekova. Lingvistikada teonimyaning tadqiqi/ Educational Research in Universal Sciences (ERUS) 2023. 373-378 bet.

sohaligini hisobga olganda yaxshigina manba vazifasini o‘tab beradi. Shuningdek, adabiy tilimizning yanada boyishiga, ravnaq topishiga xizmat qiladi. Teonim ma’nolarini yoritib berish bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi ilmiy ishning qimmatini oshiradi. Ishda erishilgan amaliy natijalar esa Navoiy asarlarini chuqurroq tushunib, o‘rganishga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Va bundan bemalol akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o‘quv yurtlarida lingvistikaning lingvokulturologiya, leksikologiya, leksikografiya sathlarini o‘rganish, bu sohada seminar-treninglar, ma’ruza va muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qo‘shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, olti fasl, bob bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosalar, foydanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 90 sahifadan iborat.

I BOB. UMUMIY TILSHUNOSLIKDA TEONIMLARNING O‘RGANILISHI

1.1 Din, teonim, til mutanosibligi jahon tilshunosligi nigohida

Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishi, insonning yashashdan maqsadi kabi savollarga o‘zicha javob beradi. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma’lum bosqichida paydo bo‘lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri. Bu dunyoqarash jamiyatning ma’lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari, ehtiyojlari asosida shakllanadi. Ulug‘ mutafakkir Abu Nasr Forobiy dinga falsafa bilan bir qatorda haqiqatga yetishishning 2 mustaqil usulidan biri sifatida qaragan. Forobiyning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg‘ambarlar ramzlar shaklida bayon qilganlar. Dinga turlicha yondoshishni Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasida kuzatish mumkin. 18-asr fransuz faylasuflarining dinga bo‘lgan o‘ziga xos yondashuvlari, 19-asrda mifologik maktab (aka-uka Ya. Grim va V. Grim, M. Myuller), antropologik maktab (L. Feyerbax) va boshqa turli yo‘nalishlar paydo bo‘lgan bo‘lsa, 20-asrda dinni tadqiq qilish yuzasidan yana boshqacha qarash va nazariyalar (K. Yung , E. Dyurkxeym) vujudga keldi.

Dinning nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umuman olganda din – ishonmoqlik tuyg‘usidir. Bunday tuyg‘usi bo‘lmagan xalq yo‘q. Chunki biron-bir xalq dinsiz, e‘tiqodsiz, biron-bir narsaga ishonchsiz yashay olmaydi. Din insoniyatning eng teran, eng go‘zal ma’naviy-ruhiy ehtiyojlaridan biridir. Insoniyat tarixida din turli shakllarda namoyon bo‘lgan. Dinning dastlabki ko‘rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik va b.dir. Shuningdek, urug‘-qabila dinlari, milliy dinlar (iudaizm, hinduiylik, sintoizm, daosizm, konfutsiychilik), jahon dinlari (buddizm, xristianlik, islom) vujudga kelgan. Din avvaliga ko‘pxudolik (politeistik), so‘ngra yakkaxudolik (monoteistik) ko‘rinishida bo‘lgan. Har bir din diniy dunyoqarash, diniy marosim, diniy tuyg‘u va sig‘inish obyektlarini o‘z ichiga oladi. Har qanday jamiyatda din ma’lum ijtimoiy, ma’naviy va ruhiy vazifalarni bajaradi. Uning ijtimoiy hayotga ta’siri kuchlidir. Har bir din dindorlarini o‘z ta’limoti doirasida saqlashga harakat qiladi, o‘z qavmlari uchun tasalli beruvchi, ovutuvchilik

vazifasini o‘taydi. Dinlar o‘z marosim va bayramlarining qavmlari tomonidan qat’iy tartibga amal qilgan holda bajarilishini shart qilib qo‘yadi, shuningdek, o‘z qavmlarining birligini, jamiyat va shaxsning o‘zaro aloqada bo‘lishini ta’minlashga intiladi. Din insonga yashashdan maqsad, hayot mazmuni, bu dunyo va u dunyo masalalariga o‘z munosabatini bildirib turadi. U umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib, xulq-atvor qoidasiga aylantiradi. Madaniyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatib, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish va avlodan-avlodga yetkazish ishiga yordam beradi²¹.

Lingvistikada teonimikaning kelib chiqishi qadim-qadimlarga borib taqaladi va bu boradagi izlanishlar hali-hanuz olib borilmoqda va o‘z qiymatini, dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Taxminan, inson o‘zini anglashga bo‘lgan ehtiyojlar kelib chiqishi bilan bog‘liq zamonlardan buyon ilohiy, xayoliy mavjudotlarga sig‘inish, tabiatdagi mavjud yaratiqulardan kuch olishga intilish hozirgidan birmuncha yuqori darajani egallagan. Buning isboti sifatida tarixga nazar tashlasak, mezolit davri mil.avv 12-7 ming yilliklar – muzlik davrida odamlar tirik qolish chun ov oldi tayyorgarligida o‘sha davr ongi bilan har xil suratlar, toshlardan madad so‘rashgan, cho‘qinishgan. Ya’ni bu ovda katta yordam beradi deb hisoblashgan. Demak, diniy qarashlar inson bilan birga tug‘ilgan va yashashda davom etyapti.

Teonim yunon tilidan olingan bo‘lib θεός —“Xudo” + ὄνομα — “Ism, nom”) — ayni ilohiyot ma’nosini ifodalovchi bir tushunchaning mifonimik bir ko‘rinishi hisoblanadi. Shunday qilib teonim tushunchasiga o‘tishdan oldin uning aslida qaysi soha tarkibida o‘rganilishini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Onomastika bu (yun. onomastike — nomlash, nom qo‘yish san’ati) — tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig‘indisi. Ayrim tadqiqotlarda "Onomastika" termini antroponimika ma’nosida ham qo‘llangan²². Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq

²¹ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Din>

²² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Onomastika>

quyidagi bo‘limlardan iborat: **antroponimika** — (antropo... yun. t.dan - ἄνθρωπος), onomastikaning bir bo‘limi bo‘lib, bir yoki bir necha guruh insonlarga berilgan nom sifatida talqin qilingan. M.: ism (Anton), otasining ismi, patronym (Pavlovich), taxallus, psevdonim (Antosha Chexonte), guruhiy antroponimlar (Kozma Prutkov)^{23/ 24};

toponimika — Tilshunos toponimistlar prof. Nafasov Z., Do‘simov, N.Oxunov O‘zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga, toponimlarning nominatsion qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo‘shdi va ko‘plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar²⁵;

teonimika — turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma‘budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini aniqlashga qaratilgan²⁶;

zoonimika — hayvonlarga qo‘yilgan (shartli) atoqli nomlarni (Raxsh, Boychibor, Jiyrongqush) tadqiqiga e‘tibor berilgan²⁷;

kosmonimika — ayni kosmonim sifatida onimning bir turi bo‘lib, fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarini o‘rganadi. M.: Magellan bulutlari, Katta Ayiq turkumi²⁸;

astronimika — ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar)ning nomlarini o‘rganadi. M.: Quyosh, Oy, Merkuriy, Venera va hokazo²⁹;

oronimlar – 1960 – 1970 yillarda rivojlana boshlagan soha hisoblanib, termin oros – tog‘, onyma – nom kabi semalardan iborat. Ma‘lum bir til yoki region

²³ <https://old.bigenc.ru/linguistics/text/702424> ma‘lumotlariga tayanildi.

²⁴ Ситораи А. Антропонимика: сущность, содержание и становление //Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук. – 2018. – №. 5. – С. 29-34.

²⁵ Shahnozabonu A. TOPONIMIKA FANINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari //Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 5. – №. 1. – С. 307-312.// Madina M., Muhlisa M., Zohid A. O‘ZBEKISTON OLIMLARINING TOPONIMIKA FANIGA QO‘SHGAN HISSASI: Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari //Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 5. – №. 1. – С. 220-227.

²⁶ Xolbekova M. S. Lingvistikada teonimiyaning tadqiqi // International conferences. – 2022. – T. 1. – №. 21. – С. 373-379.

²⁷ ASQAROVA S. “ALPOMISH” va “BOBURNOMA” dagi onomastik birliklar tahlili masalasi //Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры. – 2023. – Т. 1. – №. 1.


²⁸ <https://www.textologia.ru/russkiy/onomastika/kosmonimika/o-terminah-kosmonimika-i-astronimika/1188/?q=463&n=1188>

²⁹ <https://www.textologia.ru/russkiy/onomastika/kosmonimika/o-terminah-kosmonimika-i-astronimika/1188/?q=463&n=1188>

oronimlari majmuyi, ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi va shakllanishi o'rganadigan bo'limidir³⁰;

mifonimlar (xayoliy-to'qima obyektlarning nomlari)ga bo'ladi³¹. Ushbu atoqli otlar onomasiologiya tarkibida o'rganiladi³². Mifologik leksikasi ustida ozarbayjon tilshunosligida 1958 va 1959-yillarda turkologik tilshunoslikda strukturaning kompleks tahlili o'tkazilgan. Qo'miq tili materiallari asosida Y.I.Jafarov va 1963 yil A.P.Valiyevning tadqiqotlari asosida Y.I.Jafarov va 1963 yil A.P.Valiyevning, prof. M.D.Mirtojiyev 1964-yilda turkiy manbalar asosida yozilgan³³.

Din va til kesishgan nuqtada teonimlar vujudga keldi. Diniy tushunchalarni nomlash til, ijtimoiy qarash, ruhiy ishonch, e'tiqodlarga suyangan holda yaratiladi.



Teonim (qadimgi yunon. θεός "Xudo" + μνῆμα "ism; nomi") mifonimning bir turi bo'lib, xudolarning o'z nomini anglatadi. Teonimika onomastika bo'limlaridan biri sifatida teonimlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va mavjudligini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Teonimning o'ziga xos xususiyatlari. Teonimlar dunyoning mifologik va diniy rasmlarida juda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ular insoniyat tarixida til paydo bo'lganda paydo bo'lgan va bu jarayonni neandertal kabi odamlar turiga kiritish mumkin. Olimlarning taxminlariga ko'ra, ular allaqachon "inson tillarida uchraydigan oz sonli unlilar bilan undoshlar tiliga ega bo'lishi

³⁰ Kenjayev, Z. (2022). Boysun tuman qo'shma tarkibli oronimlari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(13), 169–173. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/7527>

³¹ [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

³² Aynur Valeh qızı Qarayeva Azərbaycan dilində dini və mifoloji/ LEKSİKA/ 5706.01– Azərbaycan dili/ Avtoref. Baki/ 2017/ B.32.

³³ Munisa Xolbekova. Lingvistikada teonimayaning tadqiqi/ Educational Research in Universal Sciences (ERUS) 2023. 373-378 bet.

mumkin”. Neandertallar ibtidoiy ovozli nutq va diniy amaliyotlarga ega bo‘lishi mumkinligi sababli, teonimlarning paydo bo‘lishi ularning davriga tegishli bo‘lishi kerak. Filologlar Aleksey Sklyarenko va Olga Sklyarenko bu haqda shunday yozishgan: “...diniy kult obyektlari nomlarining kelib chiqishi neandertal davriga borib taqaladi deb taxmin qilish mumkin. Neandertallarning tili qanchalik ibtidoiy bo‘lmasin, ammo agar u mavjud bo‘lsa, olimlarning fikriga ko‘ra va ma’lum diniy e’tiqodlar mavjud bo‘lsa, demak, bu tilda diniy ehtirom bilan bog‘liq bo‘lgan leksik sektor mavjud edi. Boshqacha qilib aytganda, inson tili mavjud bo‘lgan paytdan boshlab (neandertallar davri) unda qandaydir muqaddas lingvistik birliklar, shu jumladan propriallar to‘plami mavjud.

Nemis filologi German Uzener teonimiyaga maxsus “xudolar nomlari” (Götternamen) asarini bag‘ishlagan, unda xudolarning o‘z nomlari paydo bo‘lishi va faoliyat ko‘rsatishi jarayoni katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, bu tasodifiy, lotin tartibida sodir bo‘lmaydi: ovoz majmuasi tasodifiy tanlangan tanga emas, u ma’lum bir qiymat belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Tashqi dunyo obyektlari bilan to‘qnashuv natijasida yuzaga kelgan ma’naviy hayajon ham nominatsiyaning vositasi, ham sababidir. Fransuz mifologi va komparativisti Jorj Dyumesil Xudo nomining etimologiyasini tom ma’noda uning mazmuni va ma’nosini to‘liq aks ettiruvchi haqiqat sifatida qabul qilmaslikka, balki uning xatti-harakatlarini amalda ko‘rib chiqishga chaqirdi. Masalan, u Germaniya-Skandinaviya xudosi Odin keng funksiyalarga va rivojlangan mifologik an’analarga ega ekanligini ta’kidlagan, ammo uning teonimida faqat bitta jihat g‘azab aks etgan.

Shu bilan birga, Dyumesil o‘z asarlarida xudolar nomlarining kelib chiqishi haqida bir necha bor gipotezalar bergan, garchi u “hatto teonimning aniq etimologiyasi ham kamdan-kam hollarda qulay ma’lumot nuqtasini ifodalaydi” deb ta’kidlagan bo‘lsa-da “har qanday muhim Xudo o‘z nomiga qul mehridan qochadi”. Rus faylasufi Aleksey Losev bu borada Xudoni nomlash etimologiyasi afsona mazmunini tushuntirish uchun juda ziddiyatli manba ekanligini ta’kidlagan. Biroq, boshqa tadqiqotchilar bu masalada unchalik qat’iy emaslar va mifonimlarning etimologiyasi xudolarni tushunish va talqin qilishda muhim rol o‘ynashini

ta'kidlashadi. Shunday qilib, nemis faylasufi Fridrix Shelling teonimlarning kelib chiqishi muhim o'rganish obyekti ekanligini ta'kidladi, chunki yetarli talqin ma'lum bir tarzda u yoki bu Xudoning asl ma'nosini ko'rsatishi mumkin³⁴.

1.2. O'zbek tilshunosligida teonim tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar sharhi

Bugungi kunda onomastika sohasida qilingan ishlar talaygina bo'lishiga qaramay o'zining chuqur tadqiqini kutib turgan teonimiya kabi yo'nalishi ham mavjud. Din va til kesishgan nuqtada vujudga kelgan teonimiya qattiq ilmiy izlanishlarga muhtoj. O'zbek tilshunosligida bunga shu kunga qadar sanoqli ishlar qilindi. Diniy asarlar, Navoiy asarlarining tasavvuf bilan bog'liq tomonlari, diniy shaxslar nomlari o'rganildi. Ammo bu sayoz edi.

Teonim jahon tilshunosligi xususan, Turk tilshunosligida ham onomastikaning ichida alohida bir katta tizim sifatida o'rganila boshlangan onomastik birlik hisoblanadi. Turk tilshunosligida "Teonim - Mukaddes varlık adlarının bütünü" ya'ni Muqaddas borliq nomlarining yig'indisi deb ta'riflanadi³⁵. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib boruvchilarga esa "teonimist" deyishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, teonim va uning ustida tadqiq olib boruvchilar ham o'z nomlariga ega. Bu esa turk tilshunosligida ham bobo til o'laroq teonim o'rganilishi ancha oldinda ekanligini ko'rsatadi.

Tillayeva M.ning "Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqi" ("Avesto" onomastikasiga qiyoslash asosida) mavzusidagi filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ikkinchi bobining uchinchi bo'limi "Tangri nomlari" deb nomlanadi. Dissertatsiyadagi qadimgi mifologik tasavvurlarga ko'ra, insonga homiylik qiluvchi g'ayrioddiy kuchlar turli xil ko'rinishda namoyon bo'lish xususiyatiga ega deb qaralganligi, shuningdek, Yashtlar turli ilohlarga bitilgan alqovlarda ajdodlarimizning turli tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan tangri nomlari o'ziga xos tizimni tashkil qilishi haqida

³⁴ <https://stroj-archive.ru/stati/34934-teonim.html>

³⁵ https://www.researchgate.net/publication/272176031_YER_ADLARI_TOPONIM_TERIMLERI_SOZLUGU

aytilgan. Tadqiqotchi “Avesto”dagi iloh nomlari, ko‘pincha yerdagi tushunchalar bilan bog‘lanishini ta’kidlaydi³⁶.

O‘zbek onomastikasi bo‘yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarda bir tushunchani ifodalovchi terminlar Olloh, Xudo, Tangri leksemalari Ollohning sifatini bildiruvchi atamalar va ularning o‘zbek ismlarida zuhur bo‘lishi, islomgacha bo‘lgan xudolarning nomlari, afsonaviy maxluqotlar – ajdarho, dev, pari, shayton, jin, ot, bo‘ri yoki boshqa mavjudotlar nomlari, payg‘ambar, pir va turli ilohiy tushuncha hamda tasavvurlarning nomlari teonimlar tizimiga kirib, o‘zbek nomlarining o‘ziga xos bir tarmog‘ini tashkil etishi xususida so‘z yuritiladi³⁷.

R.Nuritdinova diniy va afsonaviy tushunchalarni ifodalovchi terminlar haqida so‘z yuritir ekan, ismlarning tanlanishi va berilishida geografik obyektlar, turli mavjudotlarning u yoki bu tarzda nomlanishi har xil diniy, ilohiy, afsonaviy, shuningdek, etnografik tushuncha va tasavurning sezilarli o‘rni borligini ta’kidlaydi. Bir qator onomastik terminlarning bo‘lishida qayd qilingan tushuncha va tasavvurlar motivlik rolini o‘ynaydi: diniy-afsonaviy tushunchalarni umumiy tarzda ifoda qiluvchi terminlar: teonimlar, teonimiya, teonimik nomlar, afsonaviy nomlar, diniy nomlar, mifik nomlar, diniy-afsonaviy antroponomiya, diniy ismlar, ilohiylashtirilgan nomlar, mifonimlar, xayoliy-faraziy nomlar, o‘zbek teonimiyasi kabi³⁸.

Diniy tushunchalar nomlari (teonimlar): bayat “Tangri, Xudo”, bacaq//bacag “ro‘za”, burxan (xit.) “budda; payg‘ambar, but”, yalabac // yalavac //yalafar “payg‘ambar”, savci “payg‘ambar” va shu kabilar³⁹. Bunday diniy tushunchalar: ro‘za, namoz, nikoh va boshqalarni tadqiq obyektimiz bo‘lgan: “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Nazm ul-javohir”da ham uchratdik. Shu kabi har bir onomastik tadqiqotchi o‘z qarashlarida teonim tushunchasiga bir-bir to‘xtalib o‘tgan, ammo bu

³⁶ A.Primov, N.O‘rozova. O‘zbek tili teonimlarini o‘rganish masalalariga doir. Samarqand - 2009

³⁷Begmatov E., Do‘simov, Nafasov T., Qorayev S. O‘zbek nomshunosligi: tadqiq yo‘nalishi va usullari. Urganch shahrida bo‘lib o‘tgan nomshunoslikka bag‘ishlangan sobiq ittifoq miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi ma‘ruzalar, tezislari// Xiva, 1991, №1. –B.12.

³⁸ Nuritdinova R. O‘zbek teonimlari xususida, // Adabiyot gulshani. 2-qism. Navoiy, 2004. –B. 91-93.

²Hamidulla Dadaboyev. O‘zbek Terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 38-bet.

nomning to‘liq tadqiq qilinganini anglatmaydi⁴⁰. Shunday ekan, o‘zbek tilshunosligida teonimiya hali o‘rganilishi shart va mavjud savollarga javob berilishi kerak bo‘lgan bir yo‘l ekanligini inkor etolmaymiz.

A.Primov, N.O‘rozova “O‘zbek tili teonimlarini o‘rganish masalalariga doir” bu maqola orqali o‘zbek teonimiyasida qilingan barcha ilmiy tadqiqotlar, bildirilgan fikr-mulohazalar bilan tanishdik. Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar”ida qo‘llanilgan teonimlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, asarda Alloh nomlarining berilishi borasida ilmiy qarashlar yoritilgan. Ammo bu bizda shu bilan cheklangan degan qarash paydo bo‘ldi. Diniy matnlar o‘rganilayotgan, nomlar “nega bunday?” degan savol ostida qolgandir, lekin aynan A.Navoiy asarlarida bunday ilmiy xulosalar hali yasalgani yo‘q. Ammo onomastikaning boshqa yo‘nalishlari yaxshi ishlangan. Bu borada “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ning IV tomida A.Navoiy asarlarida qo‘llangan barcha onomastik nomlar: geografik, astronomik, toponimik va boshqa nomlarning to‘la ro‘yxati berilgan. Uluqov N.ning “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” nomli filologiya fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasining avtoreferatida bugungacha o‘zbek tilshunosligida diniy matnlar ustida salmoqli ishlar qilinmaganligi aytiladi. Avtoreferatda shunday fikrlarni uchratdim: “O‘zbek tili so‘zshunosligi (leksikologiyasi)da professor E. Begmatov ishlari, A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati”da berilgan izohlarni hisobga olganda, EL(ekzotik leksika)⁴¹ o‘rganish borasida yirik monografiya tadqiqotlar yaratilmagan. Shuningdek, diniy matnlarning til xususiyati, leksikasi ham o‘rganilmagan. Bunga avvalgi turg‘unlik davri siyosati diniy matnlarni o‘qish-o‘rganishga imkon bermaganligi bilan izohlash mumkin. Natijada din, xususan, islom tarixini, uning xalq madaniyatiga ta’sirini, manbalarini obyektiv yoritish ishida dunyo ilmidan orqada qolib ketdik. Din tarixi va nazariyasi sohasida savodsiz bo‘lib qolishimizga ateistik ta’lim va targ‘ibotning kuchaytirilishi, siyosatlashuvi ham sabab bo‘ldi. Jumladan, diniy matnlarning lisoniy xususiyatlarini o‘rganishning

⁴⁰ Munisa Xolbekova. Lingvistikada teonimyaning tadqiqi/ Educational Research in Universal Sciences (ERUS) 2023. 373-378 bet.

⁴¹ (yunoncha exotikos — begona, begona) lug‘at. Boshqa, ko‘pincha kam ma’lum bo‘lgan tillardan olingan so‘zlar va iboralar nutqqa o‘ziga xos (mahalliy) lazzat berish uchun ishlatiladi.

ham imkoni bo'lmadi. Hozirga kelib, yangilanish, poklanish, mustaqillik, istiqlol sari qadam qo'ygan yurtimizda milliy qadrlanish, dinimiz o'z asliga, hayotga qaytmoqda. Din haqidagi tasavvur va qarashlar tubdan o'zgardi. Dinning axloqiy ma'naviyatni boyitishda muhim manba ekanligi namoyon bo'lmoqda. Qur'oni karim, hadislar to'plamining va o'nlab diniy kitoblarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi, katta nusxada nashr etilishi, bu – din, din tarixining ma'naviy hayotdagi o'rniga to'g'ri baho berish namunasi va yangicha tafakkur yutuqlaridandir. Xullas, jamiyatning yangilanish mafkurasi, ma'naviy-madaniy merosi, madaniy aloqalarni haqiqiy ilmiy asosda tushunishga, talqin etishga, o'zbekcha diniy matnlar leksikasini amaliy va nazariy jihatdan o'rganishga imkoniyat yaratdi". Uluqov fikrlariga qo'shimcha sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, hozirda dinni oldingidan to'g'ri tushunish, anglashga intilishlar kuchayyapti. Buni O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 29-dekabr kuni milliy kino san'ati va kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida so'zlagan nutqlarida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu yig'ilishda davlat rahbari dinni mamlakatimizda unib-o'sgan (Buxoriy, At-Termiziy, Moturidiy kabi) din ulamolaridan o'rganish kerakligi, buning chun ularning hayoti yoritilgan kinolar zarurligi haqida gapirib shunday deydi: "Mening eng katta ichki qiynovlarim, "Bobur" kinosini ko'rishni o'zim niyat qilardim. Ulug'bek, Beruniy, qilsak bo'ladimi?! Millatimizning orzusi bo'lsa kerak bu kinolar. Nega Al-Buxoriy to'g'risida kino yo'q? At-Termiziy bobomiz?! Termiziylar sulolasi, deganda qanchadan-qancha gaplar bor. Bu ham bir yo'nalishmi yo'qmi?! Moturidiy haqida kino ko'rsatish, u ham bir yo'nalish. Islom sivilizatsiya, deganda nimani ko'rsatamiz biz?! Elimizga to'g'ri islomni tarannum etish - juda katta tarbiya. Birinchidan ongimiz o'zgaradi, ikkinchidan o'zimizning ustimizda ishlash bilan atrofimizga muhit yaratib, boshqa illatdan olib, ijodga bag'ishlaymiz. Eng asosiy masala – o'zligimizni anglashni joy-joyiga qo'ymas ekanmiz, kechagi biz aytgan gaplarni

me'yoriga yetkaza olmaymiz”, - dedi davlat rahbari⁴². Bunday chaqiriqlar ham aslida dinni to‘g‘ri targ‘ib qilish, uni kelajak avlodga chiroyli yetkazib berish, din orqali tarbiyalashga turki bo‘ldi desak adashmagan bo‘lamiz. Unda tashqari hali dinni ilmiy o‘rganishni oldinlatish kerak bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, diniy matnlar ustida ishlanishi kerak. Uluqov ushbu dissertatsiyasida teonimlar masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi va shunday fikrlarni bildiradi: “O‘zbek tilshunosligida teonimlar chuqur va mukammal o‘rganilmagani, o‘z tadqiqini kutayotgan muammoli masalalardan biri sanaladi. E.Begmatov teonimlarga diniy tushuncha va tasavvurlarga, muqaddas dargohlarga berilgan nomlarni, shuningdek, payg‘ambar va avliyolarning ismlarini kiritadi. Uning fikricha, bu diniy nomlarga kengroq ma’noda ilohiylashtirilgan narsa va buyumlarning, diniy mazmun tashuvchi rasm-rusumlar, diniy adabiyotlarning atoqli otlarini kiritish mumkin. Shuningdek, “O‘zbek tili jabhalarida” nomli qo‘llanmada ham ilohiy kuchlarga qo‘yilgan atoqli otlar teonimlar deb ko‘rsatilgan va Momo Havo, Odam Ato otlari misol qilib keltirilgan. Aslida teonim so‘zi "xudo nomlari" degan lug‘aviy ma’noni bildiradi. Shunday bo‘lsa-da, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, biz O‘DMLar (o‘zbekcha diniy matnlar) da uchraydigan diniy tushuncha va tasavvurlar, muqaddas hisoblanuvchi diniy dargohlar, ilohiylashtirilgan predmet va buyum, diniy rasm-rusum, marosim, odat hamda Alloh, payg‘ambar hamda farishta-yu avliyolarga, diniy adabiyotlarga berilgan maxsus nomlar – atoqli otlarni shartli ravishda teonimlar guruhida tahlil etdik. O‘DMLarda uchraydigan ekzotizmlarning 30-35 foizini teonimlar tashkil qiladi. Chunonchi: 1. *Ibrohim alayxissalomning tushlari haqida* (Hadis, 4-t.,358-6.). Ibrohim alayhissalom – payg‘ambarlardan biri. 2. Abu Hurayra rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “*Davs qabilasi ayollari Zulxulusa atalmish butga sig‘inadigan bo‘lmagunlariga qadar qiyomat bo‘lmag‘aydur, Zulxulusa ersa, Davs qabilasi johiliyat davrida ibodat qilgan butdur*” (Hadis, 4-t.,390-6.). **Zulxulusa** – Days qabilasi johiliya davrida sig‘ingan but nomi. 3. “*Kim Rahmon Eslatmasidan (ya’ni, Qur’on pand-nasihatlardan) ko‘r*

⁴² <https://kun.uz/news/2017/12/30/savkat-mirzиеev-elimizga-tugri-islomni-tarannum-etis-zuda-katta-tarbia>

bo'lib olsa – yuz o'girsas, Biz unga shaytonni yaqin qilib qo'yurmiz, bas, u o'sha (kimsaga shayton doimiy) hamroh bo'lur" (Zuxruf surasi, 36-oyat)". Bundan ko'rinib turibdiki, teonimlar diniy matnlarda asosiy qismni egallagan onomastik birliklardandir. Olimning fikriga qaraganda, teonimlar o'zbek diniy matnlarida tarjimasiz qo'llanilib, matnda din ruhini ta'minlash uchun xizmat qilgan.

Tilshunoslikda o'zbek teonimiyasi haqida gap ketganda hali zabt etilmagan hudud yoxud qo'rig'i ochilmagan yer xayolga kelsa ajab emas. Negaki, nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyoda-da hanuzgacha bu mavzu ustida to'laqonli tadqiqot olib borilmaganligi haqida ushbu soha tadqiqotchisi G.S.Senesarev ham yozgan. Onomastikaning oldida turgan katta vazifalaridan biri mana shu qo'riqni ochish – o'zbek teonimlarini to'plash, guruhlash, lisoniy va diniy-afsonaviy xususiyatlari asosida ma'lum tizimga keltirishdir. Bir tushunchani ifodalovchi Oллоh, Xudo, Tangri leksemalari, Oллоhning sifatini bildiruvchi atamalar va ularning o'zbek ismlarida zuhur bo'lishi, islomgacha bo'lgan xudolarning nomlari, afsonaviy maxluqotlar – ajdarho, dev, pari, shayton, jin (ajina), ot, bo'ri va boshqa mavjudotlar nomlari, payg'ambar, pir va turli ilohiy tushuncha hamda tasavvurlarning nomlari teonimlar tizimiga kirib, o'zbek nomlarining o'ziga xos bir tarmog'ini tashkil etadi⁴³. Buni o'rganish, tadqiq etish nima beradi degan savolga javob shunday bo'ladi: diniy nomlarni tushuna olishlik, ma'no-mohiyatini yaxshi anglashlik, o'rnida qo'llay olishlik, din va til o'rtasidagi muvozanatning bir maromda ildamlashiga turtki bo'lishdir. Birgina Xudo kalimasining qaysi davrda qanday ahamiyat kasb etgani, shu birgina so'z ayni birlikni ifodalaganmi, ya'ni Xudo deganda faqat Yaratgan tushunilganmi yoki boshqa yondosh shakllar-da (sanam, but kabi) anglashilganmi mana shularga javob olishimiz uchun ham makon-zamon nuqtayi nazaridan o'rganilishi zarur deb hisoblayman. Olima Ra'no Nuritdinovanning

⁴³ Begmatov E., Do'simov Z., Nafasov T., Qorayev S., O'zbek nomshunosligi: tadqiq yo'nalishi va usullari. Urganch shahrida bo'lib o'tgan nomshunoslikka bag'ishlangan sobiq ittifoq miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasima'ruzalalr tezislalr//Xiva, 1991, [№1. –B. 12]

onomastika sohasidagi ishlarida ham teonimiya o‘z tadqiqini kutib turgan yo‘nalishlardan biri ekanligi ta’kidlangan⁴⁴.

O‘zbek teonimikasi juda boy, chunki shu paytgacha bir nechta dinga (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik, ma’jusiyylik kabi) e’tiqod qilingan. Islomgacha va undan keyingi davrlardagi shoir-yozuvchilar asarlarida bu albatta, sezilmay qolmagan. A.Navoiy asarlarida afsonaviy va diniy antroponimlar ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Afsonaviy antroponimlar shoirning badiiy va ilmiy asarlarida uchraydi. Bu kabi antroponimlar xayoliy mavzularni bayon qilish, ba’zi diniy mavzudagi asarlarni yozishda shoirga qo‘l kelgan. Shoir bunday nomlardan “Xazoyin ul-maoniy”, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida o‘rni bilan foydalangan⁴⁵. O‘zbek teonimiyasi deganda esa ko‘z-o‘ngimizda eng avval A.Navoiy gavdalansa ajab emas. Vaholanki, har bir asari – fardidan tortib “Xamsa”sigacha Alloh, payg‘ambarimiz ishq bilan limmo-lim. Har birida unga murojaat bor. Bundan tashqari dev, pari, shayton va boshqa teonimlarni ham uchratishimiz mumkin. Umuman Navoiy ijodi teonimlar ustida qurilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuning uchun biz teonimlarni ochishda aynan Navoiy ijodiy merosiga murojaat qilishga qaror qildik. Payg‘ambarlar tarixi ketma-ketlikda berilgan “Tarixi anbiyo va hukamo”dagi teonimlarni o‘rganish jarayonida ushbu asar o‘zbek teonimikasi uchun juda katta manba ekanligiga guvoh bo‘ldik. Shuning barobarida teonimlardan tashqari teotoponim, teozoonim, teogidronim, teomorflarni ham uchratish mumkin. Bu esa o‘z navbatida bizni din bilan, borib bo‘lmas tarix bilan bog‘laydi. Qisqacha aytganda, kichik hajmli, ammo qamrovi juda katta bo‘lgan ushbu asar payg‘ambarlarning eng birinchisidan tortib so‘nggiga qadar qimmatli ma’lumotlar beradi. Asarni teonimik jihatdan tom ma’noda tur-jinsga ajratib o‘rganish esa, Navoiyni chuqurroq anglashga, o‘zbek teonimikasi boyishiga xizmat qiladi.

⁴⁴ Nuritdinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili. Filol.fanl.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss.avtoreferati. –Toshkent, 2005. [8-bet]

⁴⁵ Kenjayeva S. Qarshi DU o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori “Alisher Navoiy asarlarida antroponimlar” B. 292

I bob yuzasidan xulosalar

Bob rejasini yoritishdagi izlanishlarim shuni xulosa berishimga sabab bo'ldiki, teonimning umumiy tilshunoslikda yana to'ldirilishi, o'qib-o'rganilishi, yozilishi kerak bo'lgan o'rinlari birmuncha ekan. O'zbek, nemis, fransuz, ingliz, rus tilshunoslarining qarashlarini o'qiganimda bari o'z diniy aqida, e'tiqodiga suyangan holda teonim masalasini ochishga harakat qilishgani va buni ochiqchasiga tan olishganiga guvoh bo'ldim. Teonimning onomastikadan o'sib chiqishi, davrlar silsilasidan yelkasiga olgan yuklari bilan munkillagan holda haligacha xalqning e'tiqodi, qarashlaridan uzoqlashmayotgan nomlarni orqalab olganligi kishining bu yo'nalishda ildizini kovlasa, yanayam ko'proq "teo"lar topilishiga amin bo'ldim. Uzoqqa bormaylik bugungi kunimizda ham hanuzgacha qishloq, ovullarimizda "Bibi Mushkul Kushod", "Bibi Seshanba", "Chiroq", "Chilton Tosh" va hatto o'tib ketgan "ajdodlar ruhlari"ga sig'inish mavjud. Albatta, bu e'tiqod bugun paydo bo'lgani yo'q, kecha o'ylab topilgani yo'q. Bundan bir necha ming yillab ilgari qon-qonimizga singib ketgan zardushtiylik, otashparastlikning ta'sirida yashayapti. "Qo'l olganman" deb bir qancha o'rta yoshli va yoshi ulug'lar necha yuz yillik tosh, do'mbira, qamchi, doiralarni juda muqaddas bilib, ko'z qorachig'idek asrab-avaylashadi. O'zlarini "sen"lasa ham u "muqaddas" osori-atiqalarni "siz"lashadi. Chunki ulardan o'zlariga ziyon yetishidan qo'rqishadi. Avloddan avlodga "qo'l" orqali o'tib kelayotgan "Chilton Toshlar"ga sig'inish, ulardan nimadirlar kutish (sog'lik, baxt, farzand va hk.) hanuzgacha bor. Toshni peshona va labiga tekkizib, o'pish – bu ixlos belgisi hisoblanadi. Hattoki, ba'zi muqaddas ziyoratgohlarda qabr toshlari va maqbaralarga sig'inish, ulardan nimadir umid qilish bugungi kunimizga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, teonim har qanday xalqning o‘zi bilan tug‘iladi va butun hayoti davomida u bilan birga yashaydi (ateist bo‘lmasa, albatta). Teonim deb ajratilganda ma’lum ommaning tarix va bugunda qanday din yoki dinlar ostida nafas olganini hech ham nazardan qochirmaslik kerak. Shunda mohiyatga yaqinlashiladi va teonimlar lug‘ati kengayadi deb o‘ylayman.

II BOB. TEONIMIKADA MARKAZ VA “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDAGI IFODASI

2.1 Teonimda markaz tushunchasi

Bizga ma’lumki, teonimlar onomastika bo‘limida o‘ziga xos xususiyatlariga va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yo‘nalishdir. Teonimik birliklar onomastikaning ajralmas qismlaridan ekan, ushbu soha nafaqat leksik tarkibni, uni o‘rab turgan barcha til va nutqiy birliklarning semantikasini o‘zida aks ettiradi va buning uchun bir qancha tadqiqotlarning metodikasini ishlab chiqishda ehtiyoj tug‘iladi. Ular leksik va leksikografik yondashuvlarda kategorial izohlanadi.

“Teonim” – ayni Yaratgan va uning atrofida umumiy semani tashkil etuvchi leksik birliklarni qamrab oladi va metafizik qarashlar, tasavvufiy mavzular u bilan bog‘liq tushuncha anglatuvchi dunyo elementlari nomlarini nazarda tutadi⁴⁶. A.K.Gadomskiy o‘z qarashlarini “Lingvistik tizimda lakunalar, e’tiqodiy nutq va muammolar” maqolasida bayon etar ekan, teolingvistika haqida til va dinning kesishmasida akslangan fan deya baho beradi⁴⁷ yoki A. Kazimirov teonimga til tarkibida o‘z mavqeyiga ega dinning namoyon bo‘lishi, shu bilan bir qatorda e’tiqodning nutqiy shaklini saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida namoyon bo‘lishi degan qarashlarni ilgari suradi⁴⁸.

Mazkur tadqiqotlarning materialiga asoslangan metodologiyasi tanlanishi teonimlarning obyektini, predmetini aniqlash; kategoriyalarga ajratilishida, ularning

⁴⁶ К.А. Елистратова. Теоним «Бог» в поэзии веры полужоковой *Lingua mobilis* № 4 (37), 2012 12.

⁴⁷ Гадомский А.К. О лакунах в системе лингвистической науки: проблема взаимодействия языка и религии // *Культура народов Причерноморья*. 2004. № 49. Т

⁴⁸ Гадомский А.К. О лакунах в системе лингвистической науки: проблема взаимодействия языка и религии // *Культура народов Причерноморья*. 2004. № 49. Т


tarixiy rivojlanish bosqichlarini belgilashda muhim omillardan biridir. Onomastika va onomasiologiyada lisoniy komponentning ustunligi kuzatilsa-da, har bir leksik birlik (nom) tilning rivojlanish qonuniyatlari asosida ma'naviy ko'lami kengayishini hisobga olsak, unga tadqiqot olib borilayotgan mavzu geografik, ijtimoiy (sotsiologik), adabiy, falsafiy va diniy nuqtayi nazardan yondashish zarurligini ta'kidlaymiz. Shu bilan birga har bir til elementini (nomlarni) o'rganishda individual usullar lozim bo'ladi. Chunonchi, bu kabi materiallarni qayta ishlashda o'zga ilmiy fan sohalarning tadqiqot usullaridan foydalanish ham qo'l kelish mumkin. Tashqi kuchlarga ishonish kognitologik amalga oshiriladi va kognitiv onomasiologiyaning global maqsadi – “tilning nominativ-semiotik tomonini uning ichki va tildan tashqari determinantlari nuqtai nazaridan o'rganish, inson tajribasi, kognitsiyasi, hissiyotlari, sezgi, ongsizligining turli “izlarini” til belgilarida tahlil qilish kerak⁴⁹” ligini ta'kidlaydi Selivanova. Ya'ni ongdagi ilmiy qarashlarni tilga ko'chirish va ayni shu yerda tahlil qilinishi lozimligi ta'kidlanyapti. Bu onomastikaning barcha tarkibi qatori teonimlarga ham tegishlidir. Negaki, N. I. Zubovning tadqiqoti tegishli va umumiy ismlarning nisbati muammosiga bag'ishlangan bo'lib, unda nomlash sinflari xudolarning o'zlari, ruhlarning turli sinflari haqidagi g'oyalarga muvofiqligi bilan izohlangan: Perun, Mokosh, Hors birlik mezoniga muvofiq tegishli ismlarga tayinlangan. Mermaidlar, beregini, rojanitsa – mavjudotlar sinflari, “ular to'g'risida jamoaviy g'oyalar” va shuning uchun bu ismlar umumiy ismlardir⁵⁰. Bundan chiqdi teonim atamasini birgina “Xudo” so'zi bilan almashtirib qo'ysa, bo'ladimi? Bu o'zini qanchalik oqlaydi yoki mohiyatni to'ldira oladi? Javobni quyida keltiriladigan tadqiqotchilarning mulohazalaridan izlaymiz. Xudo nafaqat monoteistik dindagi Xudoning ismi, balki politeizm da dunyo yaxlitligining bir qismi ustidan oliy hokimiyatga ega bo'lgan g'ayritabiiy mavjudotlarning butun sinfiga murojaat qilish uchun ishlatiladigan nomdir. Demak, Xudo biz bugungi kunda tushunadigan oliy nom egasi bo'lishidan

⁴⁹ Степаненко, В.А. Теолингвистика в современном религиозном дискурсе [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://md.islu.ru/node/181> (дата обращения: 23.05.2013).

⁵⁰ Мусорин А.Ю. Общие проблемы изучения теонимической лексики языков христианского мира. Российские немцы. Новосибирск, 2008.

tashqari boshqa mavjudotlarni-da qamrab oladi. Ochiqroq aytganda, bu din bilan bog‘liq masala. Ko‘p Xudolikdagi dinlar, albatta, o‘zlari chun barcha g‘ayrioddiy yaratishlarni Xudo darajasida tushunadi va shunday qabul qilishadi⁵¹. Misol chun Qadimgi Yunoniston aholisi (ellinlar) har xil yumush, mushkulotlar uchun turli xil Xudolarga murojaat qilishgan. Bular: **Afrodita** – sevgi xudosi; **Ares** – urush xudosi; **Artemis** – ovchilik xudosi; **Eros** – ehtiros va shahvat xudosi; **Nemesis** – jazolash xudosi; **Hera** – nikoh ma’budasi; **Xestiya** – uyning himoyachisi; **Gaia** – yer onasi.


Zevs esa yunon panteonidagi barcha xudolarning hukmdori, shuningdek, adolat va qonun taqsimotchisi va barcha Xudolar Zevs atrofida jamlanadi:



Ushbu yondashuv o‘sha davr nuqtayi nazaridan haqiqatga yaqinroq kelishi mumkin. Lekin hozir islom dinida ham ayni shu holatda Allohni markazda unga bog‘liq, ya’ni uni taqozo qiladigan, uni tanitish yo‘lida umrlarini sarflagan payg‘ambarlarni markaz atrofida jamlab tushunsak, bizningcha, teonim markazi va unga olib boruvchi yo‘l yanada ravshanlashgan bo‘lardi. Nimaga deganda biz Allohni aynan ular orqali tanidik. Vaholanki, ular va butun koinotni birlashtirib turuvchi kuch aynan Yaratgan nomiga borib taqaladi. Buni shunday tushunish mumkin: Alloh olamni yaratdi. Va unga o‘zini tanitish uchun elchilarini yubordi. Rasullar esa yerdagi o‘z vazifasini bajarish orqali Yaratganga yaqin kishilarga aylandi. Shu joyi e’tiborga molik deb o‘ylaymiz. Chunki keltirilayotgan nomlar faqat Buyuk maqom sohibini taqozo etish uchun xizmat qilyapti. Va yana shunisi

⁵¹ Постовалова, В. И. Религиозно-философские воззрения А. Ф. Лосева [Текст] / В. И. Постовалова // Алексей Федорович Лосев / Под ред. А. А. Тахо. Годи и Е. А. Тахо-Годи. – М. : Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2009 (Философия России второй половины XX в). – с. 176- 221.

muhimki, Rasullar bandalar orasidan “tanlab olinganlar” ekanligini unutmasligimiz kerak. Chunki bizda Alloh bitta. Dinimiz yakkaxudolikka asoslangan. Shu sababdan Allohdan boshqa tushunchalarga “Xudo” so‘zini qo‘llay olmaymiz. Quyida esa ayrim payg‘ambarlarnigina keltirdik. Muddao esa mavzu mohiyatini ochish edi.



Demak, Allohni anglatuvchi va unga yaqin tushunchalarni ham teonim deb olishimiz mumkin. Ammo teonim markazi Alloh bo‘lib qolaveradi. Yana bu din bilan aloqador mohiyat ekanligini yodda saqlashimiz kerak bo‘ladi. Boshqa dinlarda (ko‘p Xudolikdagi dinlar nazarda tutilyapti) bu tahlil boshqacha aks etishi mumkin. Misol chun Xristianlikda buning yaqqol dalilini uchratamiz. Fikrimiz dalili sifatida 1999-yilda Kasselda bo‘lib o‘tgan yillik 32-lingvistik kollokviumda mashhur nemis teologi A.Vagnerning mavzu va vazifalari haqidagi savoliga ma‘ruzasini keltirishimiz mumkin. A. Vagner maqolada ko‘tarilgan asosiy savollardan oldin so‘raydi, quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- Bu atamaning o‘zida “teo” nimani anglatadi?
- Teolingvistika fanining predmeti va vazifalari nimalardan iborat?

Birinchi savolga javob berib, A.Vagner taqqoslaydi.

Teolingvistika atamasi tilda allaqachon o‘rnatilgan sotsiolingvistika va neyrolingvistika kabi atamalar bilan birlashadi. Shu bilan birga, ularning universal tabiati qayd etilgan: shubhasiz, ushbu fanlarning ma’lumotlari barcha odamlarga,

har qanday aloqa ishtirokchisiga taalluqlidir, chunki birinchidan, barcha odamlar ma'lum ijtimoiy munosabatlarda, ikkinchidan, bu ularning har biriga tegishli. Lingvistik faoliyat jarayonida tarixiy va eksgetik jihatlar bilan belgilanadigan ma'lum asabiy jarayonlar sodir bo'ladi.

Nemis teologining fikricha, teolingvistika atamasi bilan bog'liq vaziyat ancha murakkab, chunki "teo" tushunchasi istisnosiz barcha dinlar uchun universal emas. Yunon etimologiyasiga ko'ra, "teos" xudo, odatda shaxsiy Xudo degan ma'noni anglatadi va Yaratuvchining bunday tushunchasi barcha dinlarda mavjud emas. Bundan kelib chiqadiki, teolingvistika atamasi cheklangan, o'ziga xos va birinchi navbatda xristianlik uchun mosdir.

Tilshunoslikdan keyin ham A.Vagner yangi fanga universal nom topa olmadi. Religion- Religiolinguistik va Glaube-Glaubens (-sprache)- lingvistik kabi so'zlarni tahlil qilish natijasida u "teolinguistik" (teolingvist) atamasiga asoslanadi.. Olim bu qarorni zamonaviy nemislarning ikkita asosiy konfessiyaga: katoliklik va protestantizmga mansubligi haqidagi statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlaydi. Shunday qilib, A.Vagner ta'kidlaydiki, 1995-yilda Germaniya aholisining 70% Manias nasroniylikni tan oldi. Va agar biz nafaqat nemis, balki Yevropa madaniyatining asosi nasroniylik ekanligini va u bilan bog'liqligini hisobga olsak, Yevropa xalqlarining aksariyati o'zlarining kimligini baham ko'radilar, shuning uchun bizning fikrimizcha, teolingvistika atamasi to'liq oqlanadi⁵².

Teonim markazi islom dini qarashlariga ko'ra – Alloh. Buning isboti muqaddas kitob Qur'oni Karimdagi barcha suralarda o'z aksini topgan: هُوَ اللَّهُ الَّذِي لَا (U — Alloh. Undan o'zga iloh yo'q Zotdir. U — Malik, U — Quddus, U — Salom, U — Mo'min, U — Muhaymin, U — Aziyz, U — Jabbor, U — Mutakabbirdir⁵³. Alloh Ular shirk keltirayotgan narsalardan pokdir. Shunday ekan shubhaga hojat yo'q!

⁵² V.A. Stepanenko. Theolinguistics? – Yes, theolinguistics! Вестник ИГЛУ, 2012.

https://dokumen.tips/documents/-5750a9cd1a28abcf0cd3118a.html?page=5#google_vignette

⁵³ <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=59#2>

Teonimda markazni odamlar emas ular sig'inayotgan aqida, qarash belgilaydi. Bizning dinimizda bu Alloh bilan izohlansa, xristianlikda bu boshqacha talqin etiladi. Ya'ni Xristianlikda Xudo mohiyatan yagona, lekin uch qiyofada, markazning o'zida uchta: ota xudo, o'g'il xudo, muqaddas ruh ko'rinishida aks etadi.



ota xudo, o'g'il xudo, muqaddas ruh

Xudoning turli e'tiqodlardagi nomi va shakli : Islom dini – *Alloh*; Xristian dini – *Abba*; Yahudiy dini – *Yahve*; Zardusht dini – *Ahuramazda*; Hinduiy dini – *Brahma*; Buddaviy dini – *Brahma*; Kaodaizm dini – *Kao dai*; Sintoizm dini – *Amaterasu*; Daosizm dini – *Pan gu*; Misr e'tiqodi – *Ptax*; Gretsiya e'tiqodi – *Zevs*; Italiya e'tiqodi – *Yupiter*; Slovyan e'tiqodi – *Perun*; Tangrichilik e'tiqodi – *Tangri*; Hanan va Finikiy e'tiqodi – *Ba'l* va boshqa dinlar va e'tiqodlarda ham turlicha atalgan.

Xudoga e'tiqod qilish, Xudodan qo'rqish har qanday dinga xos. Barcha din va e'tiqodlarda Xudo mavjud – xoh u yakkaxudolikka asoslangan bo'lsin, xoh ko'p xudolikka. Bir nechta Xudolari bor bo'lgan dinda ham markazdagi Xudo bosh Xudo hisoblanadi va unga ko'proq topiniladi. Shuningdek, u boshqa yondosh Xudolarga nisbatan kuchli va hamma muammolarni hal qila oladi deb ishoniladi. Xudo o'zi nima deganda ushbu savolni shunday izohlaymiz.

Xudo (forscha: خدا) — diniy sig'inish va e'tiqod qilishning obykti sifatida namoyon bo'ladigan ilohiy kuch, azaliylik va abadiylik, yaratuvchilik timsoli. Har bir dinda Xudo butun olamni yaratuvchi sifatida e'tirof etiladi. Xudo turli ta'limotlarda turlicha talqin qilinadi. Aslini olganda Xudo nazariyasi aniq ilmiy asoslanmagan nazariyadir. Qadimgi diniy e'tiqodlarda Xudolarga sig'inish bo'lmay, jonsiz narsalarga, jon va ruhga, hayvon va o'simliklarga topinilgan (animizm, fetishizm, totemizm). Sharqda keng tarqalgan panteistik qarashlarda Xudo tabiatning o'zida, xudo va tabiat bir butunlikni tashkil etadi deb qaralgan.

Zardushtiylikda ikki xudo — yorug‘lik, yaxshilik xudosi Ahuramazda va qorong‘ulik, yomonlik xudosi Anxramaynu (Axriman) bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan. Qadimgi Sharq dinlarida va boshqa politeistik (politeizm) dinlarda juda ko‘p xudolarga e‘tiqod qilinib, ulardan biri bosh xudo, qolganlari ikkinchi darajali xudolar hisoblangan. Bunga yunon mifologiyasidagi xudolar iyerarxiyasi misol bo‘la oladi. Yuqorida buni ko‘rib chiqdik.

Monoteistik dinlarda (monoteizm) bitta xudoga sig‘inilgan. Buddizmda dastlab xudolarga sig‘inish inkor etilgan bo‘lsa-da, keyinchalik Buddaning o‘zi xudo deb tanilgan, bu dinda u bilan birga boshqa xudolar ham bor. Hinduiylikda asosiy xudolar — Vishnu va Shiva.

Iudaizmdagi xudo — Yahva dastlab qabila xudosi va mahalliy xudo bo‘lgan, qad. yahudiylarning birlashishi va Yahudiy podshohligining tashkil etilishi bilan hamma yahudiylarning xudosiga, keyinchalik esa qudratli, yagona xudoga aylangan. Endi monoteistik va politeistik qarashlarda qanday aks etishini ko‘ramiz.

Monoteistik qarashlar. Islom. Islomda xudo Alloh (arabchada الله) deb nomlanadi. Bu so‘z Al-Iloh so‘zidan kelib chiqqan, bu yerda al- prefiksi arab tilidagi artikl, iloh esa „xudo“ deb tarjima qilinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, arab tilidagi Alloh kalimasining o‘zida Xudo – iloh yagona, bittaligi aytilyapti. Qur'onga ko‘ra, Alloh yagona, abadiy, tug‘magan va tug‘ilmagandir hamda unga teng keladigani yo‘q.

№	Arabchasi	Ma'nosi
	بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ	Mehribon va rahimli Alloh nomi bilan (boshlayman).
1	قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ	(Ey, Muhammad,) ayting: " (Ey, Muhammad,) ayting: "U Alloh yagonadir
2	اللَّهُ الصَّمَدُ	Alloh behojat, (lekin) hojatbarordir.
3	لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ	U tug'magan va tug'ilmagan ham.
4	وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ	Shuningdek, Unga biror tengqur ham yo'qdir.

Xristianlik. Xristian qarashlarga ko‘ra xudo yolg‘iz va yakka bo‘lsa-da, o‘zini uch ko‘rinishda namoyon etishi mumkin: Ilohiy Ota, Ilohiy O‘g‘il (Iso Masih) va Muqaddas Ruh (ba‘zi manbalarga ko‘ra Ilohiy Muqaddas Ruh).

Yahudiylilik. Yahudiylilikning muqaddas, deb hisoblanuvchi mil. avv. 3760 yilda yozilgan Tavrot kitobiga ko‘ra xudo yakkadir va u olamni yaratgandir. Bu monoteizmning boshlanishi deb qaraladi. Yahudiy xudosi Yahve (YHWH) deb ataladi.

Politeistik qarashlar. Qadimgi Rim va Yunon mifologiyasi. Qadimgi Rim va Yunon mifologiyalariga ko‘ra xudolar ko‘pdir va ularning har biri biror tayin tabiiy hodisa yoki osmon jismini ifoda etadi.

Hinduiylilik. Vedalarga ko‘ra 33 xudo bor, lekin ba‘zi hinduiy manbalarga ko‘ra ularning soni 3399 tadir⁵⁵.

2.2. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida teonimik birliklar tadqiqi

“**Tarixi anbiyo va hukamo**” — Alisher Navoiy qalamiga mansub asar. Anbiyolar, avliyolar, ilm egalari va donishmandlar tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan. Asar ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, dastlab „Tarixi anbiyo“ — payg‘ambarlar tarixi, so‘ng „hukamo“ — hakimlar va donishmandlar haqidagi ma’lumotlar keltiriladi. Kitobda ilk payg‘ambar Odam atodan boshlab, 59 ta payg‘ambarlar va valiyalar, 4 ta obid va 13 ta olim haqida to‘xtalib o‘tilgan⁵⁶. Asarda dastlabki paydo bo‘lgan iudaviylik, nasroniylik va islom dinining payg‘ambarlari va ularga xos qimmatli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Payg‘ambarlar bilan bog‘liq qissalarda Qur‘oni karim oyatlariga murojaat qilingan Alisher Navoiy asarda anbiyolarni to‘rtta guruhga ajratadi. Dastlabki guruh mursal payg‘ambarlar bo‘lib, ularga farishta Jabroil vositasida vahiy kelgan. Navoiy bu guruhga Idris, Yofas,

⁵⁵ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xudo>

⁵⁶ Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to‘plami*. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2000.

Som, Ismoil, Is'hoq, Ya'qub, Xizr, Yunus kabi payg'ambarlarni misol qilib keltiradi. G'ayri mursal payg'ambarlar ilhom yoki tushdagi bildirilgan vahiy orqali yo'l ko'rsatgan payg'ambarlardir. Muqaddas kitoblar nozil bo'lgan ulul-azm⁵⁷ payg'ambarlari Muso, Iso binni Maryam, Ibrohim kabilardir. Eng so'nggi payg'ambar xotam payg'ambar bo'lib, bu Muhammaddir. Prof. H. Boltaboyev Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy"⁵⁸ asariga yozgan taqrizida shunday fikrlarni keltirib o'tgan: "Ushbu asar 72 qissadan iborat bo'lgani uchun „Qisas“, ya'ni qissalar nomi bilan yuritiladi. Asarning dastlabki qissasi kosmogoniya⁵⁹, yer, suv, borliq va mavjudotlarning yaratilishiga oid bo'lib, ularning Yagona Yaratuvchisi haqida so'z yuritiladi, uning qodir qudratini ulug'laydi. So'ngra esa nabilar tarixi beriladiki, bu tarix ma'lum ma'noda Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarining yaratilishiga sabab bo'lgan". Navoiy bu asarni yozishda o'zidan ilgari payg'ambarlar haqida asarlar yozgan yozuvchilar ishlarini o'rgangan. Asarning ikkinchi qismida mashhur obidlar, hakimlar, olimlar zikri keltirilgan. Luqmoni hakim, Suqrot, Aflotun (Platon), Aristotolis (Arastu), Jolinus (Galen), Batlimus (Ptolomey), Noshiravoni va uning vaziri Buzurjmehr haqida ma'lumotlar keltirilib, ularning hayotlik vaqtlarida aytgan o'g'itlari-yu hikmatlaridan misollar keltirilgan⁶⁰. Alisher Navoiyning tarix ilmiga oid ilk asari — "Tarixi anbiyo va hukamo" olamning yaratilishi, payg'ambarlarning tarixi hamda ayrim hakim zotlarning sifatlari to'g'risida hikoya qiladi. Asar syujetining asosini tashkil etuvchi payg'ambarlar genezisi orqali Navoiy yashagan davr tafakkuri, dunyoni anglash mezonlari to'g'risida muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Biz e'tiborimizni asarda keltirilgan teonimik birliklarga qaratdik va mavjud teonimlarni 9 guruhga ajratgan holda tahlilga tortdik. Bular: 1. Teoabstraktlar. 2. Teoantroponimlar. 3.

⁵⁷ A.Navoiy asarlari tili izohli lug'ati O'zbekiston fanlar akademiyasi muxbir a'zosi E.I.Fozilov tahriri ostida O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, Tosh., 1984, 4 tomlik, III tom, b. 286; b. 624. **Ulul-azm** – buyuk iroda, azimat egalari, himmatli odamlar; ulug'lar: Iso binni Maryam salavotullohi alayh bir qavl bila uchunchi ulul-azmdur, bir qavl bila beshinchi. XV-232

⁵⁸ Nosiruddin Rabg'uziy. "Qisasi Rabg'uziy". Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti, 1991.

⁵⁹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kosmogoniya> // **Kosmogoniya** (kosmos va ... goniya) — kuzatilayotgan Koinotning barcha turdagi jismlari va ular sistemalari (sayyoralar va ularning tabiiy yo'ldoshlari, Quyosh sistemasi, yulduzlar, galaktikalar va boshqalar) ning paydo bo'lishi va taraqqiyotini asosan, Nyuton mexanikasi doirasida o'rganuvchi fan. K. nazariyalari va gipotezalari jismlarni astronomik usullar bilan kuzatuv natijasida vujudga keladi.

⁶⁰ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarixi_anbiyo_va_hukamo

Teozoonimlar. 4. Teotoponimlar. 5. Teoronimlar. 6. Teogidronimlar. 7. Teofitonimlar. 8. Teokosmonim. 9. Teomorflar.

1. **Teoabstraktlar** mavjud, ammo ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlab bo‘lmaydigan, fikr-u xayolimizda, tushunchamizda yashaydigan, o‘ylaganda hammada shaxsiy tasavvur uyg‘ota oladigan teonimlarga nisbatan shu termini qo‘lladik. (30 ta kuzatildi). *M.: ...onasi Namrud vahmidin ani bir g‘orda asrar erdi. ... to ulkim onasidin so‘rdikim, maning parvardigorim kimdur? Barcha-barcha farishtalar unga (ya’ni, Odamga) sajda qildilar. Magar iblis sajda qiluvchilar bilan birga bo‘lishdan bosh tortti («Hijr» – 50).*
2. **Teoantroponimlar** asosan payg‘ambar va unga yondosh (qarindosh-urug‘i, jigari, oilasi) kabi birliklardan tuzildi. Hayotda mavjud bo‘lgan, yashab o‘tgan, odamlarga umrguzaronlikda namuna bo‘lgan shaxslar. Sig‘inish darajasida emas, ammo insonlarni o‘z qarashiga ergashtira olgan sahoba-yu tobeinlarni ham oldik. Payg‘ambarlar va ulardan keyin keladigan, ya’ni ular bilan birga yashagan, bir davrada o‘tirgan, suhbatidan bahramand bo‘lgan sahobalar bizga Allohni tanitish yo‘lida umrlarini xarjlagan zotlar xususida o‘zlari ko‘rgan, bilganlarini yozib qoldirishgan. Tobeinlar esa shunday baxt egalari – sahobalarni ko‘rib, ulardan eshitganlarini bizlarga yetkazishga harakat qilishgan. Hadislar aynan shunday muborak shaxslar qalamiga mansub bo‘lib, bilishingizcha, hadis Qur‘ondan keyin turuvchi muqaddas manba sanaladi. Shunday ekan sahoba va tobeinlarni olishimizga ham yetarlicha asos bor. (82 ta teoantroponim kuzatildi). *M.: “xammartu tiynati odama biyadayya arabina sabohan” ya’ni Odamning loyini qirq kun (tong) o‘z qo‘lim bilan qordim⁶¹.*
3. **Teozoonim** hayvonot olami ham diniy matnlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yaratiqulardan hisoblanadi. Negaki, qaysidir o‘rinlarda Allohning

⁶¹ A.Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” B. 1; B.lar 49

bandalariga nimadir demoqchi bo'lgani aynan hayvonlar orqali yetkazilgan. Misol uchun Odam Ato va Moma Havoning farzandlari bo'lgan Qobil akasi Hobilni o'ldirib qo'yganida uni qanday dafn etish qarg'alarning harakatlari orqali tushuntirilgan. Qobil ko'z o'ngida ikki qarg'a jiqqamusht bo'lib, cho'qishib qoladi. Biri ikkinchisining ko'zini o'yib oladi. Va u shu yerda halok bo'ladi. Qotil qarg'a nobud bo'lganini shu yerda yerni tirnab, kovlab, ustidan tuproq tortib ko'mib qo'yadi. Bu dunyoda ilk suiqasd, qotillik, ilk o'lim bo'lganligi sababidan dafn etish tushunchasi mavjud bo'lmagan. Allohu taolo esa ushbu qarg'alar harakatlari orqali buni tushuntirib bergan Vallohu A'lam. Bundan tashqari

1. Farishta Jabroil uning oldiga qanotli oq tulpor – Buroqni yetaklab kelmish...(Muhammad payg'ambar qissasi 27-6.). Buroq, (uchqur qanotli ot) – Muhammad payg'ambar Me'roj kechasi Alloh bilan uchrashuvga minib borgan ot nomi. Demak, ot samodan tushgan desak ham adashmagan bo'lamiz.
2. U sevimli tuyasiga minib, yashil bayroqni hilpiratib, Ka'baga kirib bordi. (Muhammad payg'ambar qissasi, 40-6.). Qasva -Muhammad payg'ambar tuyasining nomi. Bu zoonimlar – hayvonlarni nomlash an'anasi arab xalqlarida, xususan, islom dinida ham mavjudligini va bu an'ana uzoq tarixga ega ekanligini bildiradi. Mazkur zoonimlar atoqli otlarning bir turi bo'lganligi uchun matnda tarjimasiz – asl holicha qo'llangan⁶². (asar davomida 7 ta teozoonim kuzatildi). *M.: ... Mana shu qarg'achalik bo'la olmadimmi? («Moida» – 31)*

4. **Teotoponimlarga** Iroq, Xuroson kabi nomlarning kiritilishiga sabab ushbu joy nomlari aslida Nuhning o'g'li Somning avlodlarining ismlari bo'lgan. Keyinchalik ularning sharafiga bu nomlar qolib ketgan. Teotoponimlarga “Yer”ni ham oldik. Negaki, u ham aslida bir sayyora Yupiter, Mars, Saturnlar kabi. Alloh tuproqni aynan Yrdan olib kelishni buyurgani, odam zoti aynan shu tuproqdan yaratilganida ham bir hikmat bo'lsa ajabmas.

⁶² Uluqov N. “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” avtoreferat Tosh. 1997

(asarda 32 ta teotoponim kuzatildi). *M.: Ammo Nuh a.s. zamonidakim to'fon bo'ldi, Nuh alarning muborak jasadlarin kemada asrab, to'fondin so'ngra Abul Qays tog'ida va ba'zi debdurlarkim, Baytul-muqaddasda dafn qildi*⁶³.

5. **Teogidronimlar** muqaddas deb bilingan suv havzalari. Odamlar ushbu joylarni boshqa suv havzalaridan diniy qarashlari, payg'ambarlar zamonidagi roli bilan ajratishadi. Misol chun Zamzam islom dinidagilar uchun eng muqaddas obihayot sanaladi. Boshqa suv havzalaridan teonimlar bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan ustun qo'yiladi. Nil esa Muso, Yusuf kabi payg'ambarlar hayoti bilan aloqador qaysidir qismlarni o'zida saqlagani uchun uni ham oldik. (asar davomida gidronimlar soni nisbatan kam kuzatildi 2 ta). *M.: Fir'avn bila Muso a. s.din xabar berib, ul qavmning valiysi Yahudoni qilib, o'zining madfanini Nil rudida Misrdin bir yig'och yiroq muqarrar qildi va dorulfanodin gulshani baqog'a xiom qildi. Bani Isroil Ya'qub a. s. zurriyotidur va isbot o'n bir o'g'li*⁶⁴.

6. **Teoronim** Oronimlar — ko'tarilgan relyef shakllari (tog'lar, qirlar, cho'qqilar, adirlar) nomlari⁶⁵. Bunday onomastik birliklarni "Tarixi anbiyo va hukamo"da ko'plab uchratdik. Qobil, Hobil, Nuh va uning o'g'illari, shuningdek, Allohning Muso bilan gaplashgan joyi ham aynan tog' teoronimida sodir bo'lgan. Alloh taolo Muso alayhissalom bilan Tur tog'ida, muqaddas vodiya gaplashdi. Payg'ambarimiz alayhissalom bilan esa, Sidratul Muntahoda gaplashdi⁶⁶. "Muso a. s.g'a yana malolat bo'lub, Jabrail a. s. Tur tog'ini yerdin ko'torib, ul qavm boshi ustiga kelturdikim, Tengri taolo hukmin eshitmasalar, boshlarig'a urg'aylar. Zaruratdin sajda qildilar, ammo vahmdin bir yuz bila sajda qilib, bir ko'zlari yuqori tog' sori erdikim, tog' tushmagay. Andoqki, yahudg'a bu dastur bo'ldikim,

⁶³ Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asari. B. 2. B.lar 1-49.

⁶⁴ Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asari. B. 14. B.lar 1-49.

⁶⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Toponim>

⁶⁶ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/paygambar-alayhissalomning-uzlariga-xos-xususiyatlari>

emdi dog‘i bir yuzlari bila sajda qilurlar. Chun qavm din qabul qildilar, yana Muso a. s. duosi bila ul tog‘ alar boshi ustidin g‘oyib bo‘ldi” - deyiladi “Tarixi anbiyo va hukamo”da. Teoronimlar shunchaki balandlik bo‘lib qolmay, ilohiy ishlar sodir bo‘lgan muqaddas joylar sifatida ham e‘tiborga molikdir. *Ammo Nuh a.s. zamonidakim to‘fon bo‘ldi, Nuh alarning muborak jasadlarin kemada asrab, to‘fondin so‘ngra Abul Qays tog‘ida va ba‘zi debdurlarkim, Baytul-muqaddasda dafn qildi*⁶⁷.

7. **Teofitonimlar** muqaddas sanalgan o‘simlik nomlari. Ular diniy sahnalarda qaysidir o‘rinlarda ishtirok etishgan. Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishiga sabab bo‘lgan o‘simlik bug‘doy deb bilsak, ayrim manbalarda bu anjir deb keladi. Uzumga keladigan bo‘lsak, Nuh payg‘ambar nomi bilan bog‘liq. Bu haqda Nosiruddin Rabg‘uziy o‘zining “Uzum hikoyati”da yozib qoldirgan. Uzum urug‘i shayton tomonidan o‘g‘irlanadi. Va uni topib bersam, o‘zim uch marta sug‘oraman deb shart qo‘yadi Nuh a.s.ga. Rozi bo‘ladi. Shayton sug‘orgach undan chog‘ir, may paydo bo‘ldi. Va uni ichgan odam uch xil qiyofada namoyon bo‘ladigan bo‘ldi. Nuh a.s. ikki marta sug‘organida esa birida shinni va birida sirka paydo bo‘ldi. Bu ikkisi bor xonadonga esa shayton yaqinlashmaydi degan qarash mavjud. Shunday ekan har bir keltirilgan o‘simlik sababsiz tilga olinmaydi. Yo payg‘ambarlar nomi bilan aloqadorligi bor yoki dinimizda unga doir mavjud tushunchalar bo‘ladi. (asarni kuzatganimizda 4 ta teofitonimni uchratdi). *M.: Va ilayida anjir (ba‘zi manbalarda bug‘doy) erdi va bir zarfda uzum shirasi. Va bu mahalda xayolig‘a Tengri taolo amvotni ihyo qilurig‘a fikrga tushti. Va ul kentning buzug‘larida odamizodning quruq so‘ngoklari bor erdi.*
8. **Teokosmonimlar** dinimizda muqaddas hisoblangan hilol (oy), yulduz, quyosh bular qadimdan islomgacha bo‘lgan davrlarda odamlar sig‘inib kelgan osmon jismlari hisoblanadi. Hatto hozir ham ayrim odamlarning

⁶⁷ Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asari. B. 2. B.lar 1-49.

yangi oy chiqqanda o'tirib olib, duo, niyat qilishlariga duch kelamiz. Ya'ni oyni Xudo timsolida ko'rishadi. Aslida bu xato. Dinimizda esa ongli yondashilganda hilol (yarim oy) musulmonlik belgisi bo'lib xizmat qilsa, yulduz, quyosh payg'ambarlar nomi bilan bog'liq. Qaysidir o'rinlarda ushbu osmon jismlari qaysidir payg'ambarga ishora qiladi. Shu joyda Yusuf a.s. tush ko'rib, tushida oy, quyosh, yulduzlarni ko'rgani. O'zini quyosh, otasini oy, qolgan yaqinlarini yulduz kabi turganligi va ularning bari unga ta'zim bajo etayotganini Ya'qub payg'ambarga aytadi va bu hasadgo'y akalari eshitib qolmasligi kerak bo'lgan buyuk tush, ya'ni o'n ikki yoshli bolakayning kelajagini bashorati ekanligini aytadi otasi. Afsuski, mana shu bashorat zimdan eshitib qolinadi va sodda bolakayning quduqqa otilishiga sabab bo'ladi. Voqealar shu zaylda davom etadi. Asosiy fikrimizga qaytadigan bo'lsak, teokosmonimlarning ba'zilar haqiqatda hayotimizda katta rol o'ynaydi. Kimdir yarim oyni yotib olgan holatda ko'rganda "notinchlik bo'ladi" endi degan behuzurlik bilan unga tikilib qolsa, kimdir quyosh tutilishini "qilgan yomonliklarimizga jazo olyapmiz" deb baholaydi. Aslida bunday tabiat hodisalarini to'g'ri qabul qilmog'imiz zarur. Kosmik jismlarni o'z o'rnida, to'g'ri tushunsak, men o'ylaymanki, Yaratganga sherik qilmagan va uning qahriga uchramagan bo'lamiz. Ayrim tabiat hodisalari ham borki, albatta, qadimda ularga ham sig'inish mavjud bo'lgan: bulut, yomg'ir, to'fon, qurg'oqchilik kabi. Ammo bularning bari ham shunchaki tabiat hodisasi emasdi – ma'lum bir qabila, xalqning Alloh mavjudligiga ishonmasdan shirk keltirishi, har xil jismlar (but, sanam, toshdan yasalgan har xil ma'budlar)ga topinib yurishlari oqibatida yuborilgan sinov edi. Bulut Muso a.s.ga ishora qilsa, to'fon Nuh a.s.ni yodga soladi, qurg'oqchilik deganda Yusuf a.s.ning payg'ambarlik davrlari esga keladi. (asarda 3 ta teokosmonim topildi). *M.: Haq taolo g'ayrat ko'rguzub, andoq qildikim, og'olari Yusufni o'n yeti qalb diramg'a*

*sottilar. Va muning kayfiyati bu erdikim, Yusuf a. s. tush ko'rub erdikim, gunashu oy va o'n bir kavkab anga sajda qildilar*⁶⁸.

- 9. Teomorflar** metaforik ko'chishga asoslangan, oldin dinda o'z nomida qo'llangan nomlarning bugunga kelib, yondosh tushunchalari tug'ilgan asl mohiyati bilan qo'shilib unga yana qo'shimcha ma'no yuklay oladigan qarashlar paydo bo'ldi. Ustoz Sh.Maxmaraimova teomorflarga shunday ta'rif beradi: "insonning miyasida allaqachon bor bo'lgan, yanayam umumiy bilimlarning faollashuvi bo'lib, bu jarayon teomorf metaforalarda yana-da yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, teomorf metafora o'zining interpretasion "qulayligi" bilan "ommabop" hisoblanadi". (asarda 26 taga yaqin teomorf topildi). *M.: Va gunashni Yuvsha' a. s.din boshqa Tengri taolo Sulaymon a. s. bila amirul-mo'minin Ali karramullohi vajha mo'jiza va karomatidin mag'ribdin mashriq sori harakat berdi*⁶⁹.

Misol uchun "arvoh" bu vafot etgan odamning sharpasi bo'lsa, bugun "ranging arvohday" deyish tasvirlanayotgan odamning yuzining rangi shu darajada sovuqlashib, nursizlashib ketganligini ifodalaydi. Tufroq esa biz yaratilgan narsa nomi deb qaraydigan bo'lsak, hozir unga bu darajada ahamiyat berilmaydi deb o'ylayman. "Tuproq tortib qo'ydi" iborasi o'lganni oyog'idan sudrab olib borib, bir chuqurga tashlab, nomiga tuproq tortib qo'ydi ma'nosida kelyapti. Ya'ni qazo qiluvchi ko'mgan uchun yo umuman begona yoki uning chun beqadr bir yaqini.

Ajdaho bu nomni eshitganda odatda har kimning xayoliga bahaybat, jahldor, qo'rqinchli, olov purkaydigan, uzundan kaltaroq barvasta dumli yovvoyi hayvon keladi. Mifik obraz. M.E.Massonning fikricha, Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida bu fantastik mavjudotni "ajdarho" deb atashgan. (Har ikki totemik obraz ham bugungi kunda o'zining teomorf-metaforik figurasiyasiga ega bo'lib, ulardan ajdarho teomorf metaforasi o'zining diskursiv ko'lamdorligi bilan ajralib turadi⁷⁰).

⁶⁸ Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asari. B. 12. B.lar 1-49.

⁶⁹ Alisher Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" asari. B. 1. B.lar 1-49.

⁷⁰ Sh.Maxmaraimova "O'zbek tilida teomorfik metaforalarning qisqacha izohli lug'ati" Toshkent 2017 B. 7; B.lar.

Havo bu bizning eng birinchi onamizning muborak ismlari. Ammo bugungi kunda biz iqlimni anglatuvchi birlik sifatida foydalanamiz.

Yaratgan tomonidan Sulaymon payg‘ambarga bir qism devlar bo‘ysundirib berilgan. Hozirda xalq orasida bejizga: “Sulaymon o‘ldi – devlar qutuldi” degan ibora ishlatilmaydi. Buning ma‘nosi shundayki, qattiq qo‘lli kishi ketib, hamma istagan ishini qila olishiga, o‘zboshimchalikka yo‘l ochilgan hollarda ishlatiladi (mifga ko‘ra Sulaymon Payg‘ambar o‘zboshimcha devlarni bandga solib qo‘ygan, Sulaymonning vafotidan so‘ng ular erkin nafas olganlar)⁷¹.

Ismlarning holati moslashuvchan bo‘lganligi sababli turli mahalliy quyi tizimlarga kiritilgan nomlar o‘zlarining yoki umumiy otlar bo‘lib chiqishi mumkin. Predmet-kontseptual yoki leksik ma‘no qat‘iy emas. Xudolar nomlarini tahlil qilib, shunday xulosaga keldikki, har bir ism lug‘aviy ma‘noga ega: u nafaqat predmetni bildiradi, balki predmetning o‘ziga xos lingvistik aksidir. Obyektни aks ettirgan holda, nom unga qisqacha tavsif beradi. Shunday qilib, boshlang‘ich nuqta sifatida nominativ funksiyani emas, balki teonimning lug‘aviy ma‘nosini olib, xudoning o‘ziga xos nomida leksik ma‘noning har xil turlari qanday ifodalanishini hal qilishimiz kerak: 1) ishorali; 2) strukturaviy; 3) emotativ; 4) denotativ. Teonimlar denotativ shaklga ega. Obyekt yoki jonzotning tasviri. To‘g‘ri nomlar "gipertrofiyalangan nominativ" va shuning uchun tegishli lingvistik omillar ularning faoliyatida ekstralingvistiklardan kam rol o‘ynaydi. Shunday qilib, Venera teonimi ma‘buda nomini belgilash bilan birga quyidagi mavzu – kontseptual ma‘noga ega; Venera (lot. Venera (Veneris) Rim mifologiyasida, dastlab bahor, bog‘lar, mevalar ma‘budasi, Afrodita (Rimliklarning ajdodi Eneyning onasi) bilan birlashtirilgan va sevgi ishtiyoqi va go‘zallik ma‘budasi, onasi bo‘lgan. Cupid; Adonis uning halok bo‘lgan va qayta tirilgan sevgilisi edi ". Shunday qilib, biz denotativ ma‘noni ko‘rib chiqishda dolzarb bo‘lgan savolga javob berishimiz mumkin: "So‘z nimani anglatadi?"

⁷¹ Sh.Maxmaraimova "O‘zbek tilida teomorfik metaforalarning qisqacha izohli lug‘ati" Toshkent 2017 B. 37; B lar 73

Kontekstda turli xil ma'nolar. teonimik birlikning denotativ yo'nalishiga ko'ra asosiy birlamchi, asosiydan ikkinchi darajali xususiy, kontekstualga o'tishi mumkin: 1) Qadimgi mifologiyada va ba'zi Sharq dinlarida ma'buda — ayol xudo (shu kontekstda birlamchi, asosiy, ma'nosi). faollashtirilgan); 2) Mening ma'budalarim! Sen nima! Qayerdasiz! Bu yerda ikkinchi darajali ma'no aktuallashtirildi: ko'chma ma'noda. Sevimli, suyakli ayol haqida.

Rus tilidagi teonimlarning denotativ ma'nolari natijasida so'zning murojaat aloqalari kengayadi, bu esa leksik ma'noning qayta tuzilishiga olib keladi. Demak, xorijiy so'zlarning eng yangi lug'atida birlamchi, asosiy ma'nosi bilan birga ikkilamchi so'zlar ham berilgan: Apollon: 2) kelishgan odam 3) diametri taxminan 1 km bo'lgan kichik sayyora; 4) yelkanli qayiqlar oilasiga mansub kapalak⁷². Shuni ta'kidlash kerakki, teonimikaning rivojlanish tarixida teonimlarning ma'nosi boshqacha ko'rib chiqilgan.


Yuqoridagi fikrlarni mavzumizga bog'liq yerini qo'shib ketsak, tarixda o'tgan payg'ambarlar shaxsiy ismlari bilan bizga nafaqat o'zini, balki shaxsiyati, xususiyatini ham qoldirgan deb bemalol ayta olamiz. Negaki. Yusuf deganda faqat payg'ambarni emas, juda chiroyli xulq, tashqi ko'rinish egalarini tasavvur qilishga ongimiz sxemalashdi. Bunday misollar bir qancha. Shulardan bir nechtasini aytishimiz mumkin.

- *Yusuf(a.s.) – go'zallik timsoli*
- *Ya'qub(a.s.) – sabr timsoli*
- *Ayyub(a.s.) – sabr timsoli*
- *Zikriyo(a.s.) – o'zi arralab yuborilgan bo'lsa-da Allohni tildan qo'ymagan*
- *Muso(a.s.) – Kalimulloh, ya'ni Alloh bilan gaplashgan payg'ambar*
- *Iso(a.s.) – tiriltirish, jon baxsh etish timsoli*
- *Sulaymon(a.s.) – kuch-qudrat, boylik timsoli. Sehrli uzuk yordamida devlarni bo'ysundiradi. Shamol uning xizmatida bo'lgan.*

⁷² <https://scicenter.online/frazeologiya-leksikografiya-leksikologiya-scicenter/ponyatie-teonima-teonimii-teonimiki-predmet-125997.html>

- *Xizr suyi – abadiy tiriklik timsoli*
- *Nuh(a.s.) – uzoq umr ko‘rish timsoli*
- *Jomi Jam – Jamshid podsho tomonidan yasatilgan dunyodagi eng katta qadah*
- *Jamshid podsho – xalqni sovuqdan qutqarish uchun yer ostiga shahar qurdirgan*
- *Osaf – Sulaymonning dono vaziri*
- *Sabo – Bilqisning afsonaviy shahri*
- *Bilqis – Sulaymonga oshiq bo‘lib qolgan dev*
- *Xalilulloh nori – Ibrohim(a.s.) payg‘ambarni yoqish uchun tayyorlangan eng katta olov*
- *Namrut – dindan qaytgan fir‘avn*
- *Luqmon – Qur‘onda nomi zikr etilgan tabib.*

Ushbu nomlar o‘z ma‘nosidan tashqari yana boshqa ma‘nolarni anglatishi bilan bir qatorda badiiy san‘at turlaridan biri bo‘lgan talmeh san‘atini ham yuzaga keltiradi. Teonimlar badiiy she‘riy san‘atning tashxis, tashbeh, istihora, husnu ta‘lil kabi yana bir qancha turlarida ham keng qo‘llaniladi.



II BOBGA XULOSALAR

1. Teonimda markaz tushunchasini aniqlashni din hal qiladi, ya'ni markaz dinning monoteistik yoki politeistikligiga qarab o'zgaradi.

2. Teonim deyilganda markaz va Uning atrofida jamlangan – Unga yaqin yoki uzoqligidan qat’iy nazar Uni taqozo etadigan borliq nomlari (suv, havo, yer, past-balandlik, osmon va osmon jismlari, gidronimlar, hayvonot olami)ni tushunish kerak. Aslida bu nomlar teonim markazi bilan bog’liq jarayonlarda ishtirok etganligi uchun ham teonim tarkibiga kiritilgan desak bo’ladi.

3. Teonimika onomastikadan alohida o’sib chiqqan katta bir yo’nalish, alohida fan sifatida teolingvistikaning obyekti bo’lib xizmat qiladi.

4. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko’rinadiki, asarda teoabstrakt 30, teoantroponim 82, teozoonim 7, teotoponim 32, teogidronim 2, teoronim 3, teokosmonim 3, teofitonim 4, teomorflar 25 tani tashkil etadi. Demak, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida teoantroponim, teotoponim va teomorflar asosiy planga chiqqanligini ko’rib o’tish mumkin.

5. Teonim tarkibga ajratib o’rganilganda ularning ham ahamiyati insonlar hayotida katta ro’l o’ynashiga guvoh bo’ldik. *Zamzam* teogidronimini olaylik, bu suv muqaddas sanaladi va o’sha buloqning o’zidan borib ichishga oshiqadiganlar ham ko’pchilikni tashkil etadi. Misol chun *Makka* teotoponimi deyilganda kimlarningdur ko’zlariga yosh keladi. Hayotda ko’rmasdan muhabbat qo’ygan Alloh va uning rasuliga bo’lgan talpinish hissi bexosdan etni junbushga keltiribgina qolmay, emotsional-ekspressiv qo’zg’alish beradi. Bu joyga borish niyat qilinganda istamagan holda bilib-bilmay qilingan gunohlar ko’z oldimizdan o’tib ketaveradi. Tavbaga suyanaveramiz. Mag’firat tilayveramiz. Demak, Alloh nomi bilan bog’liq har qanday teonim bo’lsinkim, (izohini bilsak, albatta) bizning ruhiyatimizda ularga nisbatan reaksiya doim mavjud.

III BOB. ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI TEONIMLARGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV

3.1. Navoiy asarlaridagi teonimlarning O‘zbek tili izohli lug‘atidagi tutgan o‘rni

Leksikografiyada teologiya. Boshlang‘ich nuqtada “*Teo*” tushunchasi va u bilan bog‘liq terminlarning leksikografiyadagi izohiga e‘tiborimizni qaratganimizda ushbu mavzu doirasida terminlarga u qadar keng o‘rin berilmaganligi e‘tiborimizni tortdi. O‘zbek ensiklopedik lug‘atida teologiya [*theonym (from greek theos (Θεός), “god” attached to onoma (ὄνομα), “name”) is the proper name of a deity.*]]⁷³ xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta‘limotlar majmui⁷⁴, Mutlaq xudo shaxsan o‘zini vahiy orqali kishilarga ma‘lum qiladi degan konsepsiyaga asoslanadi. Teologiya tub ma‘noda iudatizm, xristianlik va islomga nisbatan qo‘llanilib, Teologiyaning avtoritar xarakteri va aqidaviy mazmuni uning erkin falsafiy va ilmiy tafakkur prinsiplariga zid ekanligini ko‘rsatadi⁷⁵.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati (keyingi o‘rinlarda O‘TIL) “teo” tushunchasi⁷⁶ **teologiya [yun. Theos – xudo+logos- ta‘limot]** Xudoning mohiyati, din va diniy ta‘limotlar majmuyi; ilohiyot sifatida izohi ko‘rsatilgan. M.: Teologiya turli diniy o‘quv yurtlari – seminariyalar, akademiylar, madrasalar va boshqalarda o‘qitiladi. “O‘zME”⁷⁷. Bundan tashqari teo asosli tushunchalar sifatida 3 ta termin: *teolog* (ilohiyotshunos), *teologik* (ilohiyotga asoslangan), *teologiya* kabilarni kuzatdik. Xulosa qilish mumkinki, garchi insoniyat qarashlari teologik asoslarga qurilgan bo‘lsa-da, qomusiy hamda O‘TILda mazkur leksema bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarga keng o‘rin berilmagan.

A.Navoiy asarlaridagi teonimlarning O‘TIL va boshqa filologik lug‘atlardagi tutgan o‘rni. Bundan tashqari 2 ta asar: “Tarixi anbiyo va hukamo” va “Nazm ul-javohir”dagi teonimlarning O‘TILda ifodasiga e‘tiboringizni qaratmoqchimiz.

Arshi a‘zam – (semasi: buyuk taxt) O‘TILda mazkur so‘zning qismlariga izoh berilgan, ya‘ni – arsh- [ar. ارش taxt shiypon] osmonning eng yuqori qavati,

⁷³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Theonym>

⁷⁴ O‘zbek ensiklopedik lug‘ati. Fan, Toshkent, II tomlik, II tom. B. 260 B.lar 541.

⁷⁵ Ko‘rsatilgan asar. O‘zbek ensiklopedik lug‘ati. Fan, Toshkent, II tomlik, II tom. B. 260 B.lar 541.

⁷⁶ Sh, Maxmaraimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya) Firdavs-shoh, Toshkent, B. 267. B.lar. 378.

⁷⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Gafur G‘ulom, Toshkent, VI tomlik V tom B. 211. B.lar. 718.

yuqorisi⁷⁸, a'zam – [ar. أعظم eng katta, eng buyuk] *esk.kit.* ulug', buyuk ma'nolarida qo'llangan. *Arshi A'zam* Navoiy asarlar lug'atida *yulduzlarning cho'qqisi hamda osmonning eng yuqori qavati* sifatida, mumtoz asarlar adabiy lug'atida *osmonning eng yuqori qismi, ayni osmon*⁷⁹ sifatida berilib, leksemaning alohida lug'atdagi ifodasidan tashqari *burj, sutun, qandili, a'lo, barin, muallo, sarir*⁸⁰ kabi leksik birliklardan ayri holatda qo'llanmasligi e'tirof etilgan. Xususan:

Rif'at aro favqi *Arshi a'zam* so'z emish,
Jonbaxsh dami Masihi Maryam so'z emish,
Ma'ni durri anda barcha mudg'am so'z emish,
Ulkim anga ma'ni o'lmag'ay ham so'z emish.

Omonimlar lug'atida esa ushbu teonimning bir turkum doirasidagi shakldoshligi kuzatildi: arsh I. [ot.s.t.] Osmonning eng yuqori qavati, majoziy ma'noda yuqori joy; II. [ot s.t.] Kayf—u safo qilmoq, aysh-ishrat qimoq.M: Avvalgidan ko'ra kattaroq arsh qilib yuribdi. Oybek “Tanlangan asarlar”⁸¹, ayni ma'lumotlar tilshunos.com internet manzilida ham kuzatildi⁸². Sinonimlar lug'atida arsh so'zining ma'nosi bilan bog'liq sinonimlarni topa olmadik, hatto mazkur lug'atda esa *buyuk, ulug', zo'r, azim, azamat, muazzam, ulkan, yirik, gigant, hapqat, katta, haybatli*⁸³ kabi leksemalarning qatorida *a'zam* leksemasi buyuk ma'nosiga to'laqonli qamrab olgan. Mazkur birlikning omonimligi ot so'z turkumi doirasida: arsh II – kayf-safo qilmoq, aysh-ishrat qilmoq⁸⁴. Avvalgidan ko'ra kattaroq arsh qilib yuribdi. Oybek, “Tanlangan asarlar”.

Haq - Xudo, Alloh, tangri, parvardigor (xudoning sifatlaridan biri). M: *Haq* taolo. Borgin, emikdoshim, haqqa topshirdim. (Alpomish); Oh tortsam, to'kilar

⁷⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri. O'zbekiston, V. tomlik. I tom, Toshkent, 2020. B. 102. B.lar 679.

⁷⁹ Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati, Sharq, Toshkent, 2010. B. 33. B.lar. 557.

⁸⁰ Navoiy asarlar lug'ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. I tom. B. 118. B.656.

⁸¹ N.Abdurahmonova, G'.Abdulahobov BOOKMANY PRINT, Toshkent, 2022. B.22. B.lar.547

⁸² <https://tilshunos.com/omonims/56/>

⁸³ O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. N. Mahmudov tahriri. II tomlik. Toshkent, 2022. I tom. B. 297. B.lar. 502.

⁸⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri. O'zbekiston, V. tomlik. I tom, Toshkent, 2020. B. 103. B.lar 679.

ko‘zimning yoshi, "Haq!" deb chiqar g‘amli qulning tovushi. (Ravshanxon) A. Navoiy izohli lug‘atida lug‘atida bu so‘zning *haqiqiy, asliy; haqiqat, rost, to‘g‘ri so‘z; hissa, ulush, nasiba, huquq, yo‘l-yo‘riq; adolatli, odil; haq. baho, ujra* (haqlar va baho berish) kabi semalar ifodasi keltirilganligini, shuningdek *haq* so‘zining *amr, vahm, yo‘l so‘z* kabi til birliklari bilan moslashuvli birikma tarkibida tobe qism sifatida, *aning (uning) haqqi, tengri haqqi* otli birikmalarda hokim qism sifatida qo‘llanganligini ko‘rib o‘tdik.

O‘TILda **haq** [ar. *هَاق* to‘g‘ri, rost, chin, haqqoniy; huquq; adolat; majozan xudo] bu so‘z haqqoniy, holatga mos; haqiqiy holat; shaxs bildiruvchi so‘zlar bilan qo‘llanib, haqiqatning shu so‘z bilan shaxs tomonida ekanigi ifodasi; qonuniy talab, tartib-qoidaga to‘g‘ri keladigan asos, erk-imkoniyat, huquq; qonun yuzasidan biror kimsa yoki narsaga tegishli hissa to‘lanadigan yoxud olinadigan narsa; ish, mehnat va xizmat evaziga olinuvchi pul, shuningdek III shaxs egalik affiksi + o‘rin-payt kelishigi bilan birgalikda qaratilganlik munosabatini bildiradi. Bundan tashqari *haq* leksemasi deb ko‘makchisi bilan birgalikda kelib ilinj, biror holatga tayyorgarlik ko‘rish ifodasi uchun qo‘llanilish mumkin: ... *uyiga kelsa-yu, ko‘cha eshikda haq deb o‘tirgan rahmatlik onasiga yo‘liqsa.. onasi unga savag‘ich olib yugursa, nima bo‘lardi?* (Rahmat Fayziy)⁸⁵. O‘TILda *haq* leksemasining bevosita va bilvosita semasiga muvofiq bo‘lgan so‘zlar sifatida: *haqgo‘y, haqgo‘ylik, haqdor, haqiqat, haqiqatan, haqiqatda, haqiqatparast, haqiqatparvar, haqiqatsizlik, haqiqatchi, haqiqiy, haqlamoq, haqli, haqparast, haqrost, haqsevar, haqsiz, haqsizlik, haqqast, haqqoniy, haqqoniylik, haqqoniyat* kabi so‘zlarning talqin etilganligining guvohi bo‘ldik. Bundan tashqari ushbu so‘zning yangi avlod morfem lug‘atlaridagi ifodasiga murojaat qilganimizga biroz to‘xtalгимizda *haq/go‘y, haq/go‘ylik, haq/li, haq/la, haq/siz, haq/siz/lik*⁸⁶ kabi bevosita, *haqqoniy/lik, haqqoniy/at, haqqoniy/at/siz/lik* kabi bilvosita yasalish doiralarini kuzatdik va oddiygina **haqdor**

⁸⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, V. tomlik. V tom, Toshkent, 2020. B. 519. B.lar 591.

⁸⁶ <https://tilshunos.com/morphems/?page=32>

yoki *haqqparast* kabi teonim asosli morfem yasalishlarning mavjud emasligi e'tiborimizni tortdi.

Malak – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida birinchi semasi "farishta" (*Anda yo 'q o 'tkali malakka majol*) [Sab'ai sayyor 40-14], ikkinchi semasi "go'zal mahbuba" (*Malak taslimi shayton kibridekdur*) [Xazoyinul maoniy IIa-302] degan ifoda beradi⁸⁷. Shuningdek lug'atda ushbu leksema bilan bir qatorda malakvash (malaksifat), malakvashliq (farishtaga o'xshash), malakiy (malaklarga xos), malakosor (farishtanamo), malaksiymo (farishtaga o'xshash, nihoyat go'zal) kabi o'xshatishning shakliy ko'rsatkichli holatiga⁸⁸ malakut (farishtalar olamiga egalik), malaksheva (farishta tarzli, odatli, ravishli) malak teonim asosli birliklarning leksikografik tahlilini ko'rish mumkin.

O'TILda *malak* leksema [**a.** ملك – farishta] din. ayn. farishta. [*Navoiy:*] *Nechuk bezovtasan, barvaqt turibsan? Malak yanglig' o'zing tanho yuribsan? (Uyg'un va i.Sulton)*⁸⁹, ko'chma semasida go'zal ayol, nozanin degan ifoda mavjud: *...mendagi bu o'zgarish uy ichida uxlaguvchi bir malak edi... Siz edingiz! (A Qodiriy, O'tkan kunlar.)*⁹⁰, bu leksema o'zbek tilining katta izohli lug'atida farishta (dominanta), **malak**, hur, g'ilmon, so'zining sinonimik qatorini to'ldiradi hamda islomda, ba'zi xudoning amrini bajaruvchi g'ayritabiiy mavjudot sifatida hamda ayol jinsiga oidlik ochiqlik ko'rinishini, g'ilmon so'ziga nisbatan ko'proq ishlatilishiga ishora qilingan⁹¹. Bundan tashqari farishta, **malak**, hur sinonimik qatori yana alohidalanib, go'zal va yaxshi xulq-atvorga ega bo'lgan ayolga nisbatan qo'llanishi ta'kidlanadi: *U malakda bir sir borday tuyulardi. (Izzat Sulton). Boshqa qishloq, boshqa urug'dan bir sohibjamol malak bilan ahd-paymon qilib, qizning otasi, qarindoshlari qarshiligini qanday yengishni bilmay, boshi qotib yurgan kezlar (A.A'zam, Soyasini yo'qotgan inson).* Yangi avlod lug'atlari tarkibidagi sinonimlar lug'atida malak leksemasi ot so'z turkumiga ega bo'lib, musulmonchilikda hamda

⁸⁷ Navoiy asarlar lug'ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. II tom. B. 216. B.644.

⁸⁸ Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Ма"navi'iat, 2013.

⁸⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri. O'zbekiston, V. tomlik. II tom, Toshkent, 2020. B. 533. B.lar 591.

⁹⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri. O'zbekiston, V. tomlik. II tom, Toshkent, 2020. B. 533. B.lar 591.

⁹¹ O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. N. Mahmudov tahriri. II tomlik. Toshkent, 2022. I tom. B. 192. B.lar. 502.

ayrim dinlarda gunohlardan holi malak mazmunida kelishi hamda badiiy uslubda uchrashi borasidagi xulosa berilgan⁹²: Nechun bezovtasan,.. malak yanglig‘... tanho yuribsan⁹³.

Darvesh - (forscha: درویش — turkcha *derviş* — kambag‘al) qalandar - qashshoq, - o‘zini Alloh yo‘lida xizmat qilishga bag‘ishlagan va o‘zini o‘zi kamolotga yetishtirish yo‘liga kirgan inson. „So‘fiy“ so‘ziga sinonim. Darvishlik ta’limotining asosini zikir tushish orqali xudo bilan „yaqinlashish“ va, hatto, u bilan “qo‘shilib ketish” mumkin, degan g‘oya tashkil qiladi. Eron, O‘rta Osiyo, Turkiyada Darvish so‘zi tor ma’noda — shaxsiy mulki bo‘lmagan kambag‘al, daydi zohidni (16-asr boshigacha –“qalandar” atamasining sinonimi) anglatgan. Darvishning boshlang‘ich ma’nosini bildirgan „kambag‘al“ so‘zi so‘fiylikning ixtiyoriy kambag‘allik, oz narsaga qanoat qilish haqidagi ta’limotidan kelib chiqqan. Darvishlar muayyan maslak (suluk)ka birlashgan va uning g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Darvishlikning mashhur suluklari: naqshbandiylik, yassaviylik, kubroviylik va bilan ta’limoti, amaliyoti, odati va kiyimlaridan qat’iy nazar, Darvishlar ikki guruh — daydi, doimo darbadarlik qilib yuruvchilarga va shayx, pirlar rahbarligida muqim yashovchilarga bo‘lingan⁹⁴. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida mazkur so‘zning darvesh//darvish variantlari ishlatilganligi eski turkiy tilda e//i tovushining parallel qo‘llanganligi, ya’ni fors tili va turkiy tilga oid vokallarning amalda bo‘lganligini ko‘rish mumkin⁹⁵. M:

Har ne ilgimga tushti, sarf ettim,

Shoh-u **darvesh** dahrudin kettim⁹⁶. Biroq tilshunoslik boshqa sathlari kabi lingvistikaning leksikologiya sathi ma’lum bir statistikaga suyanadi, lug‘atda darvish teoantroponimining fonetik variantlariga ishora bo‘lsa-da, 30 dan ortiq

⁹² <https://tilshunos.com/sinonims/342/>

⁹³ https://sirlar.uz/navoiy-va-guli-monologi/#google_vignette

⁹⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Darvish>

⁹⁵ <https://my.iiu.uz/dashboard/uploads/files/1mJwyg0LZigQfyUXt1xKIHsZGVZgFMz0.pdf//> Низамова Ф. А. ПИСЬМЕННЫЕ НАВЫКИ В ИЗУЧЕНИИ ЯЗЫКА //ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2019. – С. 106-109.

⁹⁶ Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. I tom. B. 453. B.656.

keltirilgan misollarda fonetik variantning birorta ham uchramaganligi buning aksini isbotlab turmoqda:

Barakat ul-maoli fi ado‘ iz-zakoti
Gar molni asbobi najot aylagasen,
Darveshga sadqasini bot aylagasen,
Molingdin agar sarfi zakot aylagasen,
Ko‘prak bo‘lurig‘a iltifot aylagasen⁹⁷.

Lug‘atda darvesh teososli *darvesh*va*sh*, *darvesh*va*sh*lik, *darvesh*va*sh*lik, *darvesh*lik, *darvesh*do‘stlik, *darvesh*ona, *darvesh*do‘st, *darvesh*sifat, *darvesh*xo‘y, *darvesh*xo‘ylik kabi affiksatsion va kompozitsion yasalishlarni ko‘rib o‘tdikki, ushbu teonimik tushunchaning eski o‘zbek adabiy tilda anchayin keng iste‘molda bo‘lganligini ko‘rsatib o‘tadi. (XULOSAGA OLISH MUMKIN)

Ollohu taolo – Ollo(h) [ar. الله ilohiy kuch, xudo] din.ayn.alloh. diniy tushuncha. M: *Temur insonparvarlik va mardlikni Olloh ham, xalq ham ulug‘laydi, degan gapni ko‘p takrorlar edi*⁹⁸. Bu A.Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida “”Olloh taolo” va “Allohu ta’lu” shaklida uchraydi. Navoiy birgina Alloh kalimasiga yana aynan shu ma’noni beruvchi **16 ta sinonimini** qo‘llaydi. Bular: *Tengri taolo, Tangri taolo, Bori taolo, Haq, Irodatulloh, Haq taolo, Yorab, Haq subhona va taolo, Yazdon, Xudoyo, Qolallohu taolo, Olloh taolo, Rabbano, Valloh, Parvardigor, Allo ta’lu* kabilardir. M: O‘zbek tili sinonimlari katta izohli lug‘atida esa bu so‘z *Xudo, Alloh (Olloh), Tangri, Yaratgan, Egam, Parvardigor, O‘zi* diniy qarashga ko‘ra butun olamni, mavjudotlarni yaratgan, ularni boshqaruvchi oliy kuch sifatida talqin qilinadi, ya’ni Alloh (Olloh), asosan, diniy mazmun kasb etishi, Yaratgan, Egam leksik sinonimlari oddiy so‘zlashuvga xosligi va aksariyat *Yaratgan egam* bitishuvli formasida uchrashi, shuningdek, O‘zi shakli *shukur* hamda *asrasin* so‘zi bilan birgalikda Xudo semasini berishi ta’kidlangan. M: *O‘zingga shukur,*

⁹⁷ Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. I tom. B. 452. B.656.

⁹⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, 5 tomlik. III tom, Toshkent, 2020. B. 115. B.lar 687

Qobilboyga ham umr ber, bola-chaqasining boshida omon yursin! Meni ko‘msin.
*Sh.Xolmirzayev. Og‘ir tosh ko‘chsa*⁹⁹.

Yorab - so‘zi O‘TILda “Rabbiy, Yo rabbiy” shaklida ham uchraydi. Bu yerda Yo-Rabga ajratish kerak bo‘ladi. “Yo” undov shakli bo‘lib, e‘tiborni o‘ziga tortish, kuchli murojaatni anglatadi. Asosan, Allohga bo‘lgan murojaat shakllarida qo‘llaniladi. Rabbiy, yo rabbiy [a. رَبِّي - mening rabbim] *Yo xudo, yo parvardigor*. [Qulmuhammad:] *Balxda Darvish Ali bosh ko‘taribdi*. [Guli:] *Yo rabbiy! Alisher qayerda?* Uyg‘un va I.Sulton, Alisher Navoiy¹⁰⁰. **Rab** so‘zining ma‘nosi esa Rab(b) [ar. رَبّ – olloh, xudo; janob; hukmdor; xo‘jayin] din. Xudo, tangri, parvardigor. *Yo robbim! – Kimsan, Robbing kim? – dedi munkarnakir. – Usta Turdiali bo‘laman*. A.Qahhor, Qabrdan tovush¹⁰¹ va shunga o‘xshash quyidagi ma‘nolarni ko‘rib chiqdik.

Rabbano [ar. رَبَّنَا - bizning rabbimiz] din. Bizning rabbimiz, tangrimiz, xudomiz. *Suyganim oldinga keldi, Rabbanodan o‘rgilay*. “Qo‘shiqlar”¹⁰². “Tarixi anbiyo va hukamo”da Allohga murojaatning shu shaklini ham uchratish mumkin.

Rabbano bo‘lmoqda. Parvona bo‘lmoq aylanib o‘rgilmoq. *U yoz bo‘yi Mansur uchun ataylab yalpiz, "sariqbosh", isiriq, yana allaqanaqa giyohlarni yig‘ib yurar, "ih" desa, hozir undan ayrilib qolayotganday, boshida ming rabbano bo‘lardi*. O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol¹⁰³.

⁹⁹ O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. N.Mahmudov tahriri. G‘afur G‘ulom, II tomlik. II tom, Toshkent, 2022. B. 255. B.lar 487

¹⁰⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, 5 tomlik. III tom, Toshkent, 2020. B. 333. B.lar 687

¹⁰¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, 5 tomlik. III tom, Toshkent, 2020. B. 333. B.lar 687

¹⁰² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, 5 tomlik. III tom, Toshkent, 2020. B. 333. B.lar 687

¹⁰³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, 5 tomlik. III tom, Toshkent, 2020. B. 333. B.lar 687

3.2. Navoiy asarlarida ma’naviy munosabatlar tahlili

Navoiy asarida sinonimlar. Har qanday til qurilishida soʻzlar tarkibida ham koʻp maʼnolilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik hodisalari kuzatiladi¹⁰⁴. Til birliklari orasidagi sinonimiya munosabati tilday murakkab va muhtasham tizim tarkibidagi favqulodda muhim paradigmatik munosabatlardan biri boʻlib, bu munosabatning mavjudligi mazkur tilimizning takomili va taraqqiyoti darajasi bilan hamohangdir¹⁰⁵. Shevalarning shakl va munosabat shakllari yuzasidan rus olimlaridan Avanesov R.I., L.P.Jukovskiy¹⁰⁶, Karpov V.I.¹⁰⁷ kabi olimlarning tadqiqotlar olib borgan boʻlsa, oʻzbek olimlardan A.Hojiyev¹⁰⁸, M.Mirtojiyev¹⁰⁹, Kamolov F. kabilar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Til dialektikasidagi qonuniyatga koʻra agar soʻzlar sinonim deb topilayotgan boʻlsa, ularning fonetik tarkibi bir xil boʻlishi mumkin emas¹¹⁰ degan fikr ilgari suriladi, yaʼni sinonimiyani belgilash hech vaqt yozuv nuqtayi nazariga tobe boʻlib qolmaydi¹¹¹. M: Bultur kep, asaldi oʻttis miñdæn äpketgændi, bilmäsäm, *solı qurquduqqä* berädimi? (Bultur kep, asaldi oʻttis mindan opketgandi, bilmasam, *solı qurquduqqa* beradimi?) (bilingvizm taʼs.)- ushbu gap tarkibidagi oʻzbek shevasi tarkibida ishlatilayotgan *solı qurquduq* iborasi sinonimik jihatdan koʻrib oʻtadigan boʻlsak, [qurqqurak qush nomi-sol-fors.-yil maʼnosida] *qachon berilishi nomaʼlum boʻlgan vaqt oraligʻini* ifodalagan¹¹². Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn asarida” sinonimlarga baho berar ekan, mazkur muammoga oʻzbek tilining “sinchi”si kabi yondoshadi va tahlilga tortadi. Yigʻlamoq leksemasining *boʻxsamoq, yigʻlamsinmoq, yigʻlamoq,*

¹⁰⁴ <https://www.textologia.ru/russkiy/russkaya-dialektologia/dialektnaya-leksika/polisemiya-omonimiya-sinonimiya-i-antonimiya-v-dialektnoy-leksike/2612/?q=463&n=2612>

¹⁰⁵ Oʻzbek tili sinonimlarning katta izohli lugʻati. Gʻafur Gʻulom, Toshkent. II tomlik I tom. B. 5. B.lar. 502.

¹⁰⁶ Вопросы теории лингвистической географии, изд. АН СССР, М., 1962, стр. 147-174.

¹⁰⁷ Карпов В. И. Исследование омонимии в зонах взаимодействия языка и диалектов: вопросы методологии. // Вопросы психолингвистики/ 162-173/ 163-стр

¹⁰⁸ Hojiyev A. Semasiologiya. // Oʻzbek tili leksikologiyasi –T.:1981.

¹⁰⁹ Mirtojiyev M.M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. –T.:2010.

¹¹⁰ Kamolov F. Semasiologiya // Hozirgi oʻzbek adabiy tili // Gʻ.A. Abdurahmonov tahriri ost. –T: 1966. 128-bet.

¹¹¹ Mirtojiyev M.M. Oʻzbek semasiologiyasi. –T.:2010. 189-bet

¹¹² Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж” ловчи шевалари мисолида) //Каталог диссертаций и авторефератов. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-131. // Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124. // Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.

ingramoq, singramoq, siqtamoq, o'kurmak, inchkirmak, hoy-hoy yig'lamoq kabi bir qancha ma'nodoshlarini keltiradiki, bu kabi til birliklarining ma'nolar forsiy zabonda uchramasligini ko'rib o'tish mumkin. Biz tahlilga tortgan ushbu asarda ham teonimlar doirasida sinonimlardan foydalanishda Navoiyning so'zga mohirligini ko'rib o'tish mumkin. U bir o'rinda qo'llangan so'zdan ikkinchi o'rinda tautologiyaga yo'l qo'ymaydi. Quyida biz "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida keltirilgan ba'zi sinonimlarga to'xtalib o'tamiz.

MADFAN leksemasi [ar. *مادفان*] **qabr// go'r** ma'nolarini ifodalab, arabchada – bekitilgan, ko'milgan degan ma'nolarni ifodalaydi:

Kishiga bo'lsa ko'kka chiqmoq fan,

*Ne asig', ko'rsa oqibat madfan*¹¹³,

Mazkur ikkilikda madfan so'zi nafaqat qabr, go'r tushunchalarini, balki teoabstrakt o'limga yuzlashish ma'nosini ham ifodalamoqda.

Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati madfan so'zining **madfun** fonetik variant ham keltirilgan bo'lib, ko'p ma'noli: 1) berkitirlagan, ko'milgan hamda 2) xazina kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan¹¹⁴. O'TSKILda mazkur so'zning *mozor, lahad, turbat, maqrad o'ba, qo'yindi* singari arxaik va eskirgan shakllari kuzatildi hamda *qabr va go'r* so'zlari hozirgi kunda so'zlashuv uslubida keng iste'molda ekanligini, shundan go'r so'zi salbiy ottenkaga egaligini, shu bilan bir qatorda *madfan* leksemasining izohi keltirilmaganligini guvohi bo'lindi. M.: *Va Odam a. s. so'ngra ba'zi uch, ba'zi yeti kundan so'ngra Havog'a ajal yetti. Madfanlarida ham ixtilof bor. Ammo mavlono sharaful milla vaddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» muqaddimasida aytibdurkim, Odam a. s. ni Shis g'usl berib, namoz qildi va Hindistonda dafn qildi. Va Nuh a. s. kemaga kirarda, Odam a. s. so'ngokin m a d f a n idin chiqorib, kemag'a kiyurub erdi, kemadin chiqqonda, ba'zi debdurlar Madyan yerida, ba'zi derlar Najafda dafn qildi. Dovud a. s. Jabrail ta'limi bila Uryo q a b ri boshig'a borib, Uryodin talabi afv qildi.*¹¹⁵

¹¹³ O'zbek tilining izohli lug'ati. Gafur G'ulom, Toshkent, VI tomlik V tom B. 211. B.lar. 718.

¹¹⁴ Navoiy asarlarlari tilining izohli lug'ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. III tom. B. 69. B.lar. 843.

¹¹⁵ A.Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo"

DO‘ZAX so‘zi [fors. جهنم] jahannam (tamug‘) so‘zlariga to‘liq ma‘nodoshlik hosil qilib, gunohkor bandalarning oxirat sharobidan totingandan so‘ng azoblanadigan joy sifatida izohlangan¹¹⁶. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida mazkur birlik polisemantik: 1) tamug‘, jahannam; 2) azob, mashaqqat; 3) qiyinchilik; 4) oxirat o‘txonasi ma‘nolarida keladi¹¹⁷. Tilshunoslikka oid qarashlarda sinonimik qatorda do‘zax so‘zining dominant birlik sifatida jahannam tamug‘, saqar tushunchalaridan jahannam so‘zi badiiy uslubga xos bo‘lib, asosan, badiiy asarlarda qo‘llanishini, tamug‘, saqar kabi leksemalarning ishlatilish doirasini eskirganligi ko‘rib o‘tdik. M: *Rivoyatdurkim, ul pasha Namrudning mag‘zig‘a qasd qilsa erdi, aning monglayig‘a aning nima ursalar erdi, taskin topar erdi. Ish bir yerga yettikim, to‘qmoq yasatti. Muttasil aning boshig‘a birov urar erdi va aning havosining yaxshiroq xizmati bu erdikim, ul to‘qmoqni aning boshig‘a bir karak urg‘ay, to bu azob bila j a h a n n a m g‘a bordi.*

Alisher Navoiy o‘z asarida Ollohning elchilar haqida qaydlar juda ko‘p o‘rinda uchraydi va bu holatda faqat *anbiyo* (asarning nomlanishida ham mavjud bu holat) teoantroponimidan foydalanish Shoir pozitsiyasiga to‘g‘ri kelmas edi. Yuqoridagi takrorni oldini olish uchun shoir *anbiyo – payg‘ambar – mursal* kabi ma‘nodoshlarni qo‘llaydiki, ushbu teoantroponimlar manodoshligiga to‘xtalib o‘tamiz.

PAYG‘AMBAR so‘zi [fors. نبى - پیامبر] NATILda 1) xabar ketiruvchi, elchi; 2) din yo‘liga yo‘llovchi nabi; 3) (payg‘ambar)i mursal: Yofasin payg‘ambari *mursal* debdilar¹¹⁸; 4) (payg‘ambar)i pok izofali shaklda ifodalanganligini ko‘rib o‘tish mumkin. Asarda shoir bir necha o‘rinda mazkur mursal ayni payg‘ambar so‘ziga sinonim sifatida qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin: *Omus va Muso va Ma’ Sohibi «Guzida» Hamdulloh Almustavfi bu uch kishini ahli tarixdin naql qilibdurki, m u r s a l* erdilar. *Va bani Isroilni Muso a. s. dinig‘a da‘vat qildilar.*

¹¹⁶ O‘zbek tili sinonimlarning katta izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom, Toshkent. II tomlik I tom. B. 175. B.lar. 502.

¹¹⁷ Navoiy asarlarlari tilining izohli lug‘ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. Itom. B. 521. B.lar. 656.

¹¹⁸ A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Toshkent, XV bob, B.193

NATILda mursal va mursalin soʻzlari ayni paygʻambar, paygʻambarlar mazmunida ishlatilishi keltirilgan boʻlib, ar. مرسلين, rasul qilib joʻnatilgan.

Asarda insonning nafsiga yengilishga undovchi teoabstrakt tushunchalardan biri boʻlgan shayton va unga maʼnodosh teoabstraktlarni tahlilga tortamiz. Shoir ushbu asarda shayton soʻzini asosiy planga olib chiqadi va uning sinonimik qatorini jin, iblis, lain leksemalari bilan toʻldiradi. Shu bilan bir qatorda har bir paygʻambar haqida rivoyatlarni keltirar ekan, ularni faqatgina ismlarini keltirib oʻtmasdan, ibtidosi, ijtimoiy kelib chiqish, kasbi, moʻjizaviy qobiliyatini hisobga olib nomlaydi va biz bu kabi laqablarni ham sinonimlar doirasida tavsiflash joiz deb bilamiz. Buni quyidagi jadvalda ham koʻrishingiz mumkin. Undan tashqari boshqa koʻpgina paygʻambarlarning ham boshqacha nom (laqab)larining qoʻllanilish holatlarini kuzatdik.

Odam Ato

Odam salavotulloh alayh

Bulbashar

Odam a.s.

Safiyulloh

Iso a.s.

Ruhulloh

Xudoning oʻgʻli

Iso Masih

Idris a.s.

Yanbu`ul hayot

Axnux

Hurmis hakim

Yaʻqub a.s.

Isroil

Zulkifl a.s.	Dizqil
	Bashar
Nuh a.s.	Baxiyulloh
	Ikkinchi odam
	Xalilulloh
	Xalilul-rahmondur
Ibrohim a.s.	Ibrohim Abu rohim – rahmliq ota
	Anbiyog‘a millat otasi va hokazo.

SHAYTON [ar. الشيطان – iblis, jin, ajina] diniy qarashlarga ko‘ra odamlarni din yo‘ldan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yovuz kuchlarning boshlig‘i. M: Va *sh a y t o n i* la‘in Rahimag‘a har nav’ ig‘volar qilur erdikim, muhofazati Ayyub a. s.g‘a yetmagay. Tengri taolo ani *sh a y t o n* mutobaatidin asrar erdi¹¹⁹.

JIN [ar. شيطان – arvoq, yovuz ruh] sharq mifologiyasida va diniy tasavvurlarga ko‘ra: pastqam joylarda kishi ko‘ziga odam timsolida ko‘rinib, go‘yo uni dard-illatga chalintirib (mas., og‘zini qiyshaytirib) ketadigan afsonaviy maxluq. M: *Aning zamonida j i n xayli odamizod orasig‘a kirib, zarar yetkurur erdi*¹²⁰. Matndan ko‘rish mumkinki, jin teonimi bu yerda ham insonlar orasida yashovchi maxluq deya ta‘riflangan.

IBLIS [ar. شيطان – odamlarni yo‘ldan ozdiruvchi, yomon yo‘lga boshlovchi shayton] ko‘chma ma‘noda ayni shu sifatlarga ega bo‘lgan insonlarga nisbatan, shuningdek, iblisga nisbatlovchi haqorat sifatida ham qo‘llanadi¹²¹. M.: *Qutidor, qizingizning maqsadiga tushunib ikki turli qo‘lni darrov payqab oldi: Vijdonsiz,*

¹¹⁹ A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. B. 15. B.lar.45. [navoiy tarixi anbiyo va hukamo lotin ziyouz com.pdf](#)

¹²⁰ A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. B. 1. B.lar.45. [navoiy tarixi anbiyo va hukamo lotin ziyouz com.pdf](#)


¹²¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Gafur G‘ulom, Toshkent, VI tomlik II tom B. 461. B.lar. 1035.

*iblisI – deb qo‘ydi. A.Qodiriy, O‘tkan kunlar*¹²². “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida esa iblis atamasi insonga sajda etishdan bosh tortgan maxliqot sifatida talqin etiladi. M: *Iblisdin o‘zgakim, ul jindin erdi fasajadal maloikatu kulluho‘m ajmaunillo iblisa. [Barcha-barcha farishtalar unga (ya‘ni, Odamga) sajda qildilar. Magar iblis sajda qiluvchilar bilan birga bo‘lishdan bosh tortti («Hijr» – 50).]*¹²³. Asarning boshlarida esa aynan iblisga nisbatan ijobiy sifatlarning otkenkasining berilishi, farishta ekanligiga urg‘u berilganligini ko‘rib o‘tish mumkin. M.: Va iblis ko‘p toat qilg‘ondin so‘ng maloika martabasig‘a yetib erdi¹²⁴.

LA‘IN [ar. لعنة – la‘nati, qarg‘ish olgan, mal‘un] degan semalarni ifoda etib, ko‘proq kitobiy tilda qo‘llanadi va zamonaviy adabiyotda shayton, iblis so‘zlari bilan izofali birikma hosil qilgan holda, shuningdek, firibgar, qallob, hiylagar kabi ko‘chma ma‘noda ishlatilishi ko‘zda tutilgan. M: *-Sen shaytoni lainsan, endi bildim, xoinlar bilan hamtovoq bo‘lgansan, - dedi Abduvohid. Oybek. Nur qidirib.* O‘TSKILda esa yuqorida keltirilgan birorta so‘z (shayton, lain, jin va hokazo) yoki uning ma‘nodoshlari keltirib o‘tilmaganligi e‘tiborimizni tortdi.

Asar davomida shayton, lain, jin, iblis kabi sinonimlarning qo‘llanish doirasiga baho berish maqsadida ularning statistikasiga murojaat qilganimizda quyidagicha holatga guvoh bo‘ldik:

-diagramma



¹²² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Gafur G‘ulom, Toshkent, VI tomlik II tom B. 461. B.lar. 1035.

¹²³ A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. B. 47. B.lar.49. navoiy_tarixi_anbiyo_va_hukamo_lotin_ziyouz_com.pdf


¹²⁴ A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. B. 1. B.lar.4. navoiy_tarixi_anbiyo_va_hukamo_lotin_ziyouz_com.pdf

“Tarixi anbiyo va hukamo” asarida shayton, lain, jin, iblis sinonimlarning statistikasi

Demak, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida shayton, lain, jin, iblis sinonimlarning qo‘llanish doirasida shayton so‘zi dominanta so‘z sifatida, keyingi o‘rinlarda jin, iblis va lain so‘zlari egallagan bo‘lib, keyingi ikki so‘zning eski o‘zbek adabiy tili davrida ham keng iste‘molda bo‘lmaganligi haqida xulosaga ega bo‘lish mumkin.

Bihisht // jannat//ravza – asarda ushbu so‘zlarning sinonimiyasi kuzatildi. Bihisht [ar. جَنَّة – jannat] ayni jannat ma’nosini ifodalab, gunohsiz kimsalar boqiy dunyoda yashaydiga rohat-farog‘atli joy ma’nosini beradi. M.: Andin so‘ngra o‘z duong bila *bihishti jovidong‘a* kiyurgumdur. Jirjis a. s. dedi: Har ne haq taolodindur kelsa, xushtur. // ... biror nima molidin berib, o‘n yildin so‘ngra odam Safiyulloh bihishtdin chiqarg‘on asoni anga berib, ani Misrg‘a uzotti¹²⁵. A. Navoiy asarlarida *jannat; go‘zal, obod, ko‘rkam joy; adn, barn, vasl kabi birliklar bilan izofali birikmalar hosil qilib, adn - (jannat)i adn, ya’ni jannatiy iqomatgoh (turar joy); barn - (jannat)i barn, ya’ni go‘zal jannat; vasl- (jannat)i vasl, vasl bog‘i shaklida qo‘llangan*¹²⁶. Mazkur so‘zning sinonimik qatorini kuzatganimizda uning rizvon, firdavs, ujmoh (uchmoh) kabi ma’nodoshlarini ko‘rib o‘tdik¹²⁷.

-diagramma



Jannat so‘zining “Tarixi anbiyo va hukamo asarida”gi statistikasi

¹²⁵ A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. B. 3-18. B.lar.49. [navoiy tarixi anbiyo va hukamo lotin ziyouz com.pdf](#)

¹²⁶ Navoiy asarlarlari tilining izohli lug‘ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. I tom. B. 301. B.lar.656.

¹²⁷ O‘zbek tili sinonimlarning katta izohli lug‘ati. G‘afur G‘ulom, Toshkent. II tomlik I tom. B. 270. B.lar. 502.

Leksemalar iste'molida jannat so'zining barcha usluvida keng qo'llanishi, uchmoh so'zi poetik nutqda, behisht, ravza, rizvon, firdavs so'zlarini tarixiy va badiiy asarlarda ishlatilishiga urg'u berilgan. Biroq kuzatishlarimiz asarda behisht teonimi boshqa teonimlar ichida asosiy planga chiqqanligiga guvoh bo'ldik. (-diagrammaga qaralsin). Bundan tashqari jannat leksemasi ma'nodoshi ravza so'zi bir o'rinda jannat semasini bersa, bir o'rinda yuqoridagi joy ma'nosini ifodalagan. M: *Ko'rdikim, bir g'arib ranglik farishta, kabutar chiroyliq erdi, r a v z andin kirib, aning qoshinda qo'ndi. Dovud a. s.g'a qil-g'on xiyolin unutturdilar. Ul qushni tutarg'a mayl qilg'och, ul qush r a v z andin chiqib, tomg'a qo'ndi*¹²⁸.

Asarda shuningdek arvoḥ – ruh// // maloik – malak – farishta kabi sinonimlarning ham ifodasi borligini kuzatish mumkin.

Navoiy asarida antonim tushunchalar talqini. Antonimlar (anti + onoma — ism, nom) — zid ma'noli til birliklari degan ma'noni ifodalaydi. Lingvistikada oppozitivlik 3 turi mavjud:

- 1) leksik antonimlik: baland — past, uzun — qisqa;
- 2) affikal antonimlik: suvli — suvsiz;
- 3) sintaktik¹²⁹ (stilistik) antonimlik A. (yuz - bashara).

Tilshunoslikda antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Fe'llardagi bo'lishli-bo'lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi. Antonimlar ba'zan juft holda qo'llanib ma'no kengaytiradi yoki ma'no ifodalaydi: tun-u kun (har doim). Ko'p ma'noli so'z o'zining har bir ma'nosi bilan ayrim so'zlarga sinonim bo'lishi mumkin: xafa so'zi bir o'rinda xursand so'ziga antonim bo'ladi, yoki qattiq yer — yumshoq yer; baxil (xasis) odam — saxiy odam.

Navoiy tili nihoyatda boyligi bilan ajralib turadi. Uning qay bir asariga murojaat qilar ekanmiz, albatta, tazod (zidlantirish)ni duch kelish mumkin. Ushbu

¹²⁸ A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. B. 28. B.lar.49. [navoiy tarixi anbiyo va hukamo lotin ziyouz com.pdf](#)

¹²⁹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonimlar> dan olingan ma'lumotlarga tayanildi.

asarda ham antonimlar ko‘pchilikni tashkil etib, mavzuyimiz doirasida antonimlar tahlilga olishga harakat qildik.

T/r	Teonim (ijobiy tushuncha)	Teonim (salbiy tushuncha)
1.	Odam	Iblis
2.	jannat	do‘zax
3.	bihisht	Jahannam
4.	farishta	shayton
5.	malak	jin
6.	musulmon	kofir
7.	hayot	o‘lim
8.	Muso	Fir‘avn

Asarning boshlang‘ich nuqtasida teantroponimga (Odam) teoabskrat tushunchasining (iblis) qarshi qo‘yilganining o‘zi bu asarning aksariyat tazod san’ati asosiga qurilganligini ko‘rib o‘tish mumkin. M: **O d a m** salavotulloh alayh xilqati *Odamning kuniyati Bulbashardur va laqabi Safiyullohdur. Chun irodatulloh aning xilqatig‘a muqtaziy bo‘ldi, Jabrailg‘a amr bo‘ldikim, bir miqdor tufrog‘ aning tiynati taxammuri uchun ul yerdinki, holo Makka aning o‘rnidadur, keltursun.* // **I b l i s** Odam jihatidin la’nati abadiyag‘a shoyista bo‘lub erdi.

III BOBGA XULOSALAR

1. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan *qabr va go‘r* so‘zlari hozirgi kunda so‘zlashuv uslubida keng iste’molda qo‘llanmoqda, biroq O‘TSKILda mazkur so‘zning *mozor, lahad, turbat, maqrad o‘ba, qo‘yindi* singari arxaik va eskirgan shakllari kuzatilgan bo‘lsa-da, *madfan* leksemasining izohi keltirilmaganligining guvohi bo‘lindi.

2. Demak, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida shayton, lain, jin, iblis sinonimlarning qo‘llanish doirasida shayton so‘zi dominanta so‘z sifatida, keyingi o‘rinlarda jin, iblis va lain so‘zlari egallagan bo‘lib, keyingi ikki so‘zning eski o‘zbek adabiy tili davrida ham keng iste’molda bo‘lmaganligi haqida xulosaga ega bo‘lish mumkin.

3. O‘TSKIL keyingi bosma nashrlarida shayton va u bilan bog‘liq tushunchalar: lain, jin, mal’un kabilar ma’noviy sinonim sifatida kiritilishi, lingvistika doirasida sinonimlar bazasining kengayishiga asos bo‘lar edi.

4. Leksemalar iste’molida jannat so‘zi barcha uslubda keng qo‘llansa-da, asarda behisht teonimi boshqa teonimlar ichida asosiy planga chiqqanligiga guvoh bo‘ldik.

5. Sinonimlar lug‘atida *arsh* so‘zining ma’nosi bilan bog‘liq sinonimlarni topa olmadik, hatto mazkur lug‘atda *buyuk, ulug‘, zo‘r, azim, azamat, muazzam, ulkan, yirik, gigant, hapqat, katta, haybatli*¹³⁰ kabi leksemalarning qatorida *a‘zam*

¹³⁰ O‘zbek tilining sinonimlar lug‘ati. N. Mahmudov tahriri. II tomlik. Toshkent, 2022. I tom. B. 297. B.lar. 502.

leksemasi buyuk ma'nosiga to'laqonli qamrab olsa-da, kiritilmaganligining guvohi bo'lindi.

6. Bizning fikrimizcha, garchi sinonimlarning bir doirasida shakllanishi ko'pgina manbalarida tahlilga tortilgan bo'lsa ham [chiroyli, go'zal, husnli, husndor, xushro'y, xushsurat, ko'hlik, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol, suluv, ra'no¹³¹] malak teonimi chiroyli, go'zal, beqiyos, tengsiz semalari nuqtayi nazardan nutqiy sinonimlar¹³² doirasiga kiritishni taklif etamiz.

7. Lug'atlardagi darvesh so'zi vositasida *darveshvas*, *darveshvaslik*, *darveshlik*, *darveshdo'stlik*, *darveshona*, *darveshdo'st*, *darveshsifat*, *darveshxo'y*, *darveshxo'yliq* kabi affiksatsion va kompozitsion yasalishlari mazkur teonimik qarashlarning eski o'zbek adabiy tili darvrida anchayin keng qo'llanganligini bilish mumkin.

Kuzatishlarimizning xulosasi shuki, *Tengri taolo*, *Tangri taolo*, *Bori taolo*, *Irodatulloh*, *Haq taolo*, *Yorab*, *Haq subhona va taolo*, *Yazdon*, *Xudoyo*, *Qolallohu taolo*, *Olloh taolo*, *Rabbano*, *Valloh*, *Allo ta'lu* kabi izofali birikmalar yaxlit holda Xudo teonimi sifatida talqin qilinar ekan, ularni O'TSKILga hamda O'TILga kiritilishi tilimizning lug'at boyligining ortishiga xizmat qiladi.

¹³¹ O'zbek tilining sinonimlar lug'ati. N. Mahmudov tahriri. II tomlik. Toshkent, 2022. II tom. B.379. B.lar. 487.

¹³² Nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan, ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha qatoridagi ozgina leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida (adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqida ham) qo'llana olgani holda, picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangandir.//I smanova O. Nemis va ozbek tillar kesimida tarjimonning tarjimada leksik sinonimlardan tanlab foydalanish uslublari //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 11 Part 2. – С. 157-160.

UMUMIY XULOSA

Avvalombor teonimning jahon tilshunosligida o'rganilishiga ahamiyat qaratildi. Unda qanday tadqiqotlar amalga oshirildi. Teolingvistika fan sifatida shaklanishi va hokazolar ko'rib chiqildi. Keyin o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan ishlar nazardan qochirilmadi.

Asar to'liq diniy, tarixiy shaklda yozilgan bo'lib, o'zida islom dini kirib kelgunga qadar bo'lgan yaqqol namoyon qiladi. Payg'ambarlar ketma-ketligi, ularning qanday hayot kechirishgani, uchragan to'siqlari, yo'liqqan muammolari, topgan yechimlari, Allohning ularga yuborgan mujda, yengillik, rahmatlari jadallik bilan yozilganki, bir o'qishda butun bir ming yillik diniy tarix ko'z oldingizdan yelday o'tadi. Undan tashqari ularning avlodlari ketma-ketligi ham keltirilgan. Bugungi kunda oddiy shahar, qishloqlarning nomlari ham aynan shu payg'ambarlar avlodlari nomlariga atab qo'yilganiga guvoh bo'ldik (Xuroson, Iroq, Hirot kabi). Asarda keltirilgan nomlarning deyarli 90 foizi teonim nomlarini tashkil etib, ular yana o'z ichida turli guruhlariga ajratildi.

1. Teonimlarni o'rganishda dunyo tilshunosligi bizdan ancha oldinlab ketganiga guvoh bo'ldik. Chet tilshunosligida teonim ma'nosi mohiyatini anglash tugul, alohida "teolingvistika" deb nomlangan fan shakllangan.
2. Teonim bu insonlarning diniy mafkuralarida xoh kichik, xoh katta bazani tashkil etishidan qat'iy nazar sig'inayotgan markazga nisbatan alohida tushunchasi mavjud bo'ladi.
3. Asarda ajratib olingan teonimlar sinonimlarining ba'zilarini O'TSKILda uchratmadik. M.: *do'zax* so'zi o'rnida "*azob*"

4. Asardagi teonimlar o'z ichida guruhlarga ajratildi. Teoantroponim, teozoonim, teofitonim, teooronim, teogidronim kabi.
5. Leksigokrafik tahlilga tortildi.
6. Teonimik birlik (nom)lar ham so'z(Haq) yoki so'z qo'shilma(Haq subhana va taolo)laridan iborat holda ishlatiladi. Tilda tayyor holda qo'llaniladi, nutqda boshqa gap bo'laklari bilan aloqaga kirishadi. Shuningdek, undov so'zlar bilan birga qo'llanganda ham xatolik yuzaga kelmaydi. M.: *Ey Xudoyim, Yo Rabbiy, E Allohim, O Yaratgan Egam* kabi.
7. Shu ma'noda teonimik birliklar shaxsning ichki kechinmalari, psixologik holati, teonimlarga obrazli munosabatini ifodalaydigan til hodisasidir deb qarajak xato bo'lmaydi.
8. Mavjud teonimlarning O'TILda qo'llanishi o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1) Milliy nashrlar

- 1) Sh. Maxmaraimova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya) Firdavs-shoh, Toshkent, B. 267. B.lar. 378.
- 2) Hamidulla Dadaboyev. O‘zbek Terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. 38-bet.
- 3) O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 4) Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to‘plami*. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2000.
- 5) A.Navoiy asarlari tili izohli lug‘ati O‘zbekiston fanlar akademiyasi muxbir a‘zosi E.I.Fozilov tahriri ostida O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti, Tosh., 1984, 4 tomlik, III tom, b. 286; b. 624.
- 6) Hojiyev A. Semasiologiya.//O‘zbek tili leksikologiyasi –T.:1981.
- 7) Mirtojdiyev M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi. –T.:2010.
- 8) Kamolov F. Semasiologiya// Hozirgi o‘zbek adabiy tili// G‘.A. Abdurahmonov tahriri ost. –T: 1966. 128-bet.

2) Xorijiy nashrlar

- 9) Г.С.Снесарев. К истории некоторых категорий теонимов у народов Средней Азии и Казахстана // Ономастика Средней Азии.№2. – Фрунзе, 1980. – С.273-282.
- 10) Ситораи А. Антропонимика: сущность, содержание и становление //Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук. – 2018. – №. 5. – С. 29-34.
- 11) Aynur Valeh qızı Qarayeva Azərbaycan dilində dini və mifoloji/ LEXSIKA/ 5706.01– Azərbaycan dili/ Avtoref. Bakı/ 2017/ B.32.
- 12) К.А. Елистратова. Теоним «Бог» в поэзии веры полозковой *Lingua mobilis* № 4 (37), 2012 12.

- 13) Гадамский А.К. О лакунах в системе лингвистической науки: проблема взаимодействия языка и религии // Культура народов Причерноморья. 2004. № 49. Т
- 14) Степаненко, В.А. Теолингвистика в современном религиозном дискурсе
- 15) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://md.islu.ru/node/181> (дата обращения: 23.05.2013).
- 16) Мусорин А.Ю. Общие проблемы изучения теонимической лексики языков христианского мира. Российские немцы. Новосибирск, 2008.
- 17) Постовалова, В. И. Религиозно-философские воззрения А. Ф. Лосева [Текст] / В. И. Постовалова // Алексей Федорович Лосев / Под ред. А. А. Тахо. Годи и Е. А. Тахо-Годи. – М. : Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2009 (Философия России второй половины XX в). – с. 176- 221.
- 18) V.A. Stepanenko. Theolinguistics? – Yes, theolinguistics! Вестник ИГЛУ, 2012. https://dokumen.tips/documents/-5750a9cd1a28abcf0cd3118a.html?page=5#google_vignette
- 19) Вопросы теории лингвистической географии, изд. АН СССР, М., 1962, стр. 147-174.
- 20) Карпов В. И. Исследование омонимии в зонах взаимодействия языка и диалектов: вопросы методологии./ Вопросы психолингвистики/ 162-173/ 163-стр

II. Diniy manbalar, adabiyotlar

- 21) Nurmonov F. Xizr obrazi genezisiga doir ayrim mulohazalar. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2004 – 2-son, -B. 51-54
- 22) Nosiruddin Rabg`uziy. "*Qisasi Rabg`uziy*". Toshkent: "Yozuvchi" nashriyoti, 1991.
- 23) A.Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Toshkent, XV bob, B.193

III. Lug'atlar

- 24) Sohib Kamol. 505 ism ma'nosi. Ismlar lug'ati. – Qarshi, Nasaf, 2004.
B. 258
- 25) Sh.Maxmaraimova “O‘zbek tilida teomorfik metaforalarning qisqacha izohli lug'ati” Toshkent 2017 B.73
- 26) O‘zbek ensiklopedik lug'ati. Fan, Toshkent, II tomlik, II tom. B.lar 541.
- 27) O‘zbek tilining izohli lug'ati. Gafur G‘ulom, Toshkent, VI tomlik V tom B. 718.
- 28) O‘zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, V. tomlik. I tom, Toshkent, 2020. B. 679.
- 29) Berdaq Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati, Sharq, Toshkent, 2010. B. 33. B. 557.
- 30) Navoiy asarlar tilining izohli lug'ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. I tom. B.656.
- 31) Navoiy asarlar lug'ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. II tom. B.644.
- 32) Navoiy asarlarlari tilining izohli lug'ati. Fan, Toshkent, IV tomlik. III tom. B. 843.
- 33) O‘zbek tilining sinonimlar lug'ati. N. Mahmudov tahriri. II tomlik. Toshkent, 2022. I tom. B.502.
- 34) O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri. G‘afur G‘ulom, II tomlik. II tom, Toshkent, 2022. B. 487
- 35) N.Abdurahmonova, G‘.Abduvahobov. Omonimlarning o‘quv lug'ati. BOOKMANY PRINT, Toshkent, 2022. B.22. B.lar. 547.
- 36) O‘zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, V. tomlik. I tom, Toshkent, 2020. B. 679.
- 37) O‘zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, V. tomlik. V tom, Toshkent, 2020. B.591.
- 38) Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изохли луғати. – Ма"naviiāt, 2013.

39) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, V. tomlik. II tom, Toshkent, 2020. B.591.

40) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri. O‘zbekiston, V tomlik. III tom, Toshkent, 2020. B. 687

41) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Gafur G‘ulom, Toshkent, VI tomlik V tom B. 718.

42) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Gafur G‘ulom, Toshkent, VI tomlik II tom B.1035.

IV. Badiiy adabiyotlar

43) Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” B. 49.
[navoiy_tarixi_anbiyo_va_hukamo_lotin_ziyouz_com.pdf](#)

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar

44) Nuritdinova R. O‘zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili. Filol.fanl.nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss.avtoreferati. – Toshkent, 2005. [8-bet]

45) Uluqov N. “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” avtoreferat Tosh. 1997

VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

46) Ismanova O. Nemis va o‘zbek tillar kesimida tarjimonning tarjimada leksik sinonimlardan tanlab foydalanish uslublari //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 11 Part 2. – С. 157

47) Uluqov N. O‘zbekcha diniy matnlarda teonimlar. // O‘zbek tilshunosligining va adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. – Andijon, 2001, - B. 44-45

48) Xolmatov A. Teonimiya haqida umumiy tushuncha. // O‘zbek tilshunosligiga oid tadqiqotlar, - Toshkent, 1993. –B. 83-84

- 49) A.Primov, N.O'rozova. O'zbek tili teonimlarini o'rganish masalalariga doir. Samarqand – 2009
- 50) Begmatov E., Do'simov, Nafasov T., Qorayev S. O'zbek nomshunosligi: tadqiq yo'nalishi va usullari. Urganch shahrida bo'lib o'tgan nomshunoslikka bag'ishlangan sobiq ittifoq miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar, tezislari// Xiva, 1991, №1. –B.12.
- 51) Nuritdinova R. O'zbek teonimlari xususida, // Adabiyot gulshani. 2-qism. Navoiy, 2004. –B. 91-93.
- 52) Munisa Xolbekova. Lingvistikada teonimyaning tadqiqi/ Educational Research in Universal Sciences (ERUS) 2023. 373-378 bet.
- 53) Shahnozabonu A. Toponimika fanining rivojlanish bosqichlari: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 307-312.
- 54) Madina M., Muhlisa M., Zohid A. O'zbekiston olimlarining toponimika faniga qo'shgan hissasi: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 5. – №. 1. – C. 220-227.
- 55) Asqarova S. “Alpomish” va “Boburnoma” dagi onomastik birliklar tahlili masalasi //Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в развитии восточной государственности и культуры. 2023. – Т. 1. – №. 1.
- 56) Kenjayev , Z. Boysun tuman qo'shma tarkibli oronimlari. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(13), 2023. 169–173. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/7527>
- 57) Kenjayeva S. Qarshi DU o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori “Alisher Navoiy asarlarida antroponimlar” B. 292.
- 58) Низамова Ф. А. Письменные навыки в изучении языка //приоритетные направления научных исследований. – 2019. – С. 106-109.

VII. Internet saytlari

- 59) <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Din>
- 60) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Onomastika>
- 61) <https://old.bigenc.ru/linguistics/text/702424> ma'lumotlariga tayanildi.
- 62) <https://www.textologia.ru/russkiy/onomastika/kosmonimika/o-terminah-kosmonimika-i-astronimika/1188/?q=463&n=1188>
- 63) <https://www.textologia.ru/russkiy/onomastika/kosmonimika/o-terminah-kosmonimika-i-astronimika/1188/?q=463&n=1188>
- 64) <https://stroi-archive.ru/stati/34934-teonim.html>
- 65) https://www.researchgate.net/publication/272176031_YER_ADLARI

TOPONIM TERIMLERI SOZLUGU

- 66) <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=59#2>
- 67) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kosmogoniya>
- 68) https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tarixi_anbiyo_va_hukamo
- 69) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Toponim>
- 70) <https://en.wikipedia.org/wiki/Theonym>
- 71) <https://tilshunos.com/omonims/56/>
- 72) <https://tilshunos.com/morphems/?page=32>
- 73) <https://tilshunos.com/sinonims/342/>
- 74) https://sirlar.uz/navoiy-va-guli-monologi/#google_vignette
- 75) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Darvish>
- 76) <https://my.iiau.uz/dashboard/uploads/files/1mJwyg0LZigQfyUXt1xKIHSzVZgFMz0.pdf//>
- 77) <https://www.textologia.ru/russkiy/russkaya-dialektologia/dialektnaya-leksika/polisemiya-omonimiya-sinonimiya-i-antonimiya-v-dialektnoy-leksike/2612/?q=463&n=2612>
- 78) <https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonimlar>
- 79) <https://scicenter.online/frazeologiya-leksikografiya-leksikologiya-scicenter/ponyatie-teonima-teonimii-teonimiki-predmet-125997.html>
- 80) <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/paygambar-alayhissalomning-uzlariga-xos-xususiyatlari>